

ONAXON JABBOROVA

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING
4 K MODELI BO'YICHA KO'NIKMALARINI
SHAKILLANTIRISH TEKNOLOGIYASI VA
BOSHLANG'ICH TA'LIM
METODIKASIDA YANGILANISHLAR**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Onaxon Jabborova

**BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARINING 4 K MODELI
BO'YICHA KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI VA
BOSHLANG'ICH TA'LIM
METODIKASIDA YANGILANISHLAR**

«SARBON LLS»
Toshkent – 2024

UO'K:

KBK:

Jabborova O.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4 k modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi va boshlang‘ich ta’lim metodikasida yangilanishlar. Monografiya. – Toshkent, 2024

Monografiyada “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi va boshlang‘ich ta’lim metodikasida yangilanishlar” dunyo mamlakatlari miqyosida amalda bo‘lgan Angliyaning Kembrij kolleji hamda mamlakatimiz Prezident maktablari tajribasidan o‘tgan tizim asosida o‘quvchilarning ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi hamda keyingi besh yil davomida boshlang‘ich ta’lim metodikasida ro‘y beragan yangilanishlar yoritilgan.

Monografiya oliy pedagogik ta’lim muassasalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrleri, amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, boshlang‘ich ta’lim metodistlari va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Mardonov Shukurullo Qo‘ldoshevich – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Ochilov Fariddun Izatulloyevich – CHDPU, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tilakova Mavjuda Ashurovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Mazkur monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Bayonnomma №11. 14.06.2024

ISBN

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING 4K MODELI BO'YICHA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI	5
1.1. Kommunikatsiya (ta'lif sharoitidan foydalanish) ko'nikmasini shakllantirish texnologiyasi	5
1.2. Kollaboratsiya (jamoa bo'lib ishlash) ko'nikmasini shakllantirish texnologiyasi	13
1.3. Kreativlik (ijodiy yondashuv) ko'nikmasini shakllantirish texnologiyasi	23
1.4. Kretisizm (tanqidiy fikrlash) ko'nikmasini shakllantirish texnologiyasi	34
1.5. Boshlang'ich ta'limning yangi funksiyalari va uni rivojlantirishning istiqbolli asoslari.....	43
II BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASIDA YANGILANISHLAR TIZIMI.....	52
2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil faoliyatga va ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash metodikasi.....	52
2.2. Boshlang'ich ta'lif jarayonida o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish tajribalari	57
2.3. Boshlang'ich ta'lifda psixologik xizmat amaliyoti	66
III BO'LIM. BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYANING AHAMIYATI	74
3.1. Boshlang'ich ta'lif metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyadan foydalanish masalasi.....	74
3.2. Boshlang'ich ta'lif metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyadan foydalanish shakllari	81
3.3. Boshlang'ich ta'lif metodikasini yangilashning amaliy ahamiyati.....	87
XULOSA	92
TAWSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR.....	94
LUG'AT.....	97

KIRISH

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimizda 2030 yilga qadar ta’lim tizimini butunlay yangilash va uning mazmunini xalqaro ta’lim dasturlari hamda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalariga moslashtirish vazifalari qo‘yilgan. Mazkur vazifalar jarayonida boshlang‘ich ta’limni 2026 yilga qadar ta’limning sifatli ko‘rsatkichlarini yuksaltirish va uning samaradorligini oshirish islohotlari belgilangan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida alohida vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning negizini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga xalqaro miqyosida e’tirof etilgan yondashuvlar, metodikalar, vositalar va texnologiyalarini joriy etish tashkil qiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining Angliya Kembrij kollejining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga mamlakatimizda keyingi paytlarda e’tibor qaratilmoqda. Bu ish Prezident maktablari tajribasidan o‘tganligini eslatib o‘tish joiz va 2023-2024 o‘quv yildan boshlab mazkur maktabning o‘qitish metodikasi, dastur hamda darsliklari umumiy o‘rtta ta’lim maktablari uchun tayanch sifatida belgilandi. Mazkur asoslар ushbu monografiyani tayyorlash masalasini zaruriyat sifatida belgilab berdi.

Tadqiqotning mavzu dolzarbligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi (chunki mamlakatimizda umumiy o‘rtta ta’lim maktablari o‘quvchilarining 2023-2024 o‘quv yildan boshlab mazkur to‘rt ko‘nikmasini shakllantirish yo‘lga qo‘yildi) va boshlang‘ich ta’lim metodikasida bo‘layotgan yangilanishlarning ilmiy tahlil qilib berilganligi bilan belgilanadi. Negaki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4 K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish asoslari bo‘yicha ilmiy-metodik ishlanmalar endi yaratila boshlaganligini eslatib o‘tish joiz.

Monografiyani tayyorlashda muallif pedagog olimlarimizning tavsiyalari va individual yondashuvlariga asoslaniladi. Unga doir fikr-mulohazalarinigizni kutib qolamiz.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING

4K MODELI BO'YICHA KO'NIKMALARINI

SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

1.1. Kommunikatsiya (ta'lism sharoitidan foydalanish) ko'nikmasini shakllantirish texnologiyasi

O'zbekiston bosqlang'ich ta'lism bosqichida o'quvchilarning ko'nikmalarini xalqaro ta'lism dasturlari va xorijiy mamlakatlarning tajribalari asosida shakllantirish muhim o'rinn tutadi. Ana shunday dunyo miqyosida e'tirof etilgan amaliyotga joriy etilayotgan ko'nikmalardan biri *kommunikatsiya* ko'nikmasidir. Mazkur kommunikatsiya ko'nikmasi XX asrning 90-yillarida Angliyaning Kembrij kollejida ishlab chiqilgan va tajriba-sinovdan o'tkazilgan. XXI asrning 20-yillaridan bosqlab mazkur ko'nikmaga bo'lgan dunyo miqyosidagi qiziqish ortdi.

Angliyaning Kembrij kolleji Kembrij universiteti tarkibiga kiruvchi 31 kollejning eng asosiyalaridan biri hisoblanadi. Aynan mana shu kollej negizida keyinchalik universitet tashkil etilgan. Kembrij kolleji XIX asrning 50-yillarida tashkil etilgan va qisqa muddat ichida uning ta'lism va tarbiya bo'yicha tajribasi dunyo mamlakatlari ta'lism muassasalari tomonidan e'tirof etilgan. Chunki kollej oliv ma'lumot beruvchi muhim ta'lism muassasalaridan biri bo'lib, unda o'qish uchun dunyo mamlakatlari fuqarolari maxsus tayyorgarlik ko'rishadi. Kembrij kolleji pedagog olimlari tomonidan XIX asrning 90-yillarida XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan 100 yillik davrida ishlab chiqilgan va tajriba-sinovdan o'tkazilgan o'quv reja, dastur hamda adabiyotlari mukammalligi bilan ajralib turadi. Mazkur ta'lism jarayonida shaxsdagi tabiiy fazilat va hislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor beriladi. Shu sababli keyinchalik Kembrij kollejining ta'lism va tarbiya tajribasiga dunyo mamlakatlari pedagog olimlari alohida e'tibor bera bosqlashdi. Kollejda o'qish uchun shaxs 21 yoshga to'lgan bo'lishi kerak, chunki inson mazkur yoshida aqliy rivojlanishning eng muhim bosqichida bo'ladi va o'zini baholash ko'nikmasiga ega bo'la boshlaydi. Bularning barchasi Kembrij kollejida ishlab chiqilgan va e'tirof etilgan ta'lism hamda tarbiyaga oid 4K modeli ko'nikmalarining mazmunini to'g'ri tushunish uchun

yo‘nalish vazifasini bajarishini eslatib o‘tish joiz. Mazkur masala bo ‘yicha pedagog olimlarning dastlabki munosabatlari mavjud. Bunda O.Jabborova, X.Qarshiboyeva va Sh.Mardonov o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan tahlillar amallaga oshirilgan va rus pedagoglari N. Bordovskaya hamda A.Rean tomonidan munosabat bildirib o‘tilganligini ta’kidlab o‘tish lozim.¹

“Kommunikatsiya” atamasi lotincha bo‘lib, mavjud imkoniyatlar va texnik jihozlardan foydalanish, ular vositasida muloqotga kirishi olish mazmunini anglatadi². Shu sababli mazkur atama vositasida kommunikatsiya ko‘nikmasi tarkib topib, u pedagogik tajriba-sinovdan o‘tib kelmoqda. Bu o‘rinda e’tiboringizni kommunikatsiya ko‘nikmasini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlar va ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish texnologiyasi tahliliga tortamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim sharoitidan foydalanishga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirish uchun eng avvalo ularni mazkur ko‘nikmaning dastlabki qismi bo‘lgan ta’lim sharoitidan foydalanishga o‘rgatish lozim bo‘ladi. Shu ma’noda ta’lim sharoitidan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va tarbiya jarayoniga olib kirishda tayanch vazifasini o‘taydi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagilardan foydalanishga o‘rgatilishi kerak:

- a) zamonaviy o‘quv binolaridan foydalanish;
- b) zamonaviy laboratoriya imkoniyatlaridan foydalanish;
- c) zamonaviy o‘quv maydonlaridan foydalanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim va tarbiya jarayonida moslashish jarayonida bo‘ladi. Ularning nisbatan ko‘pchiligi maktabgacha ta’lim muassasalarida zamonaviy binolardan foydalanish ko‘nikmasini egallagan bo‘lsa-da, biroq umumiy o‘rtta ta’lim maktabining o‘quv binolaridan foydalanishni qaytadan o‘zlashtiradi.

¹ Qarang. Jabborova O., Qarshiboyeva X. Pedagogik diagnostika. Darslik. – Toshkent, 2024 . Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – O ‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2021. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg, 2001 va x.k.

² Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева Ж., Усмонов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: “Фан ва технология”. 2009. 226-бет.

Bunda o‘quv binolari dizayner shakllariga zarar yetkazmaslik, ularga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, o‘quv binolarining imkoniyatlarini cheklashni bartaraf etuvchi jamoatchilik ishlarida ishtirok etish va o‘zini o‘quv binolaridan erkin hamda mustaqil his etish ko‘nikmalarini egallashi kerak. O‘zgacha aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchisida “Bu mening o‘quv binoim” mazmunidagi tushuncha tarkib topishi kerak. Shunda o‘quvchi umumiyligi o‘rtalim maktablari, jumladan, boshlang‘ich ta’lim binolaridan oqilona foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Bu bilan ularda o‘zining ta’lim dargohi bilan faxrlanish hissi tarkib topadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz umumiyligi o‘rtalim maktablari zamonaviy laboratoriya imkoniyatlari bilan ham jihozlanmoqda. Chunki boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya berish g‘oyasi amal qilmoqda. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari laboratoriya binolarining o‘ziga xos jihatlari, ulardan foydalanish qoidalari va tartiblari, foydalanishning vaqtini hamda xavfsizlik asoslari bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Laboratoriya binolariga xos bo‘lgan xususiyatlardan xabardor boshlang‘ich sinf o‘quvchisi nafaqat ularning imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanadi, balki o‘zining va o‘zgalarning xavfsizligini ta’minlashda ham bilvosita ishtirok etadi. Shu sababli laboratoriya binolari imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish kommunikatsiya ko‘nikmasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz umumiyligi o‘rtalim maktablari jismoniy tarbiya va madaniyat mashg‘ulotlari, to‘garaklar mashg‘ulotlari hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish uchun zamonaviy o‘quv maydonlari bilan jihozlangan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mazkur o‘quv maydonlaridan sanitariya-gigiyena qoidalari, estetik talablar va pedagogik qoidalari asosida foydalanishga o‘rgatilishi kerak. Misol uchun, Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridan keyin yuz-ko‘llarini yuvish kabi sanitariya-gigiyena talablaridan xabardor bo‘lishi ularda o‘quv maydonlaridan oqilona foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptiradi. Shu sababli mazkur masala ham kommunikatsiya ko‘nikmasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Kommuniatsiya ko‘nikmasining ta’lim sharoitidan foydalanish

tarkibiy qismi bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tushuncha va odatlarni shallantirishda ana shu masalalarga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Bunda zamonaviy o‘quv binolari, laboratoriya binolari va o‘quv maydonlaridan foydalanishni bilish bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ layoqat ham rivojlanib borishini eslatib o‘tish joiz. Mazkur ishlar sinf rahbari boshchiligidagi 1-sinfdayoq o‘quv fanlari o‘qituvchilari va Yoshlar yetakchisi tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim muhiti imkoniyatlardan foydalanishga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan kommunikatsiya ko‘nikmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri ularni ta’lim muhiti imkoniyatlardan foydalanishga o‘rgatishdir. Ta’kidlab o‘tish lozimki, mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur”ga asosan xalqaro ta’lim dasturlari va xorijiy mamlakatlarning tajribalariga mos keladigan ta’lim muhiti shakllantirilgan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim muhiti imkoniyatlardan foydalanishga o‘rgatishda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- a) sinf ta’lim muhitidan foydalanish;
- b) maktab ta’lim muhitidan foydalanish;
- c) sinfdan tashqari ta’lim muhitidan foydalanish.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim muhiti o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor o‘qituvchilarning o‘quvchilarga munosabati va o‘quvchilarning o‘zaro muloqotiga qaratiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sinf ta’lim muhitidan foydalanishni o‘rgatish uchun ularni dars vaqtin, tanaffuz vaqtidagi xatti-harakatlar, dars jarayonida tartib intizomga rioya qilish va bilim olish jarayonida o‘rtoqlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Mana shu ko‘nikmalarga o‘rgangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 1-sinfdan boshlaboq mavjud sinf ta’lim muhitidan foydalanish va unda o‘zining o‘rnini topish harakatlarida bo‘ladi. Buning natijasida sinf muhitidagi mavjud imkoniyatlardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari foydalanishi nazarda tutilgan ko‘nikmalarni tarkib toptirishga erishish muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim muhiti ham umumiy

xususiyatlarga ega. Unda har bir sinfning xususiyatidan kelib chiqqan holda dars jarayonini tashkil qilish, dars jarayonida o‘zga sinflarga xalaqit bermaslik, tarbiyaviy tadbirlarni maktab muhitining talablaridan kelib chiqib tashkil qilish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining katta yoshli o‘quvchilar bilan munosabatlaridagi o‘ziga xosliklar mazkur toifa o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Eng asosiysi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi maktab ta’lim muhitidan umumiylar xususiyatlarga ega bo‘lgan imkoniyatlar, ya’ni o‘z sinflardagi o‘quvchilar bilan bilim olish jarayonida muloqotga kirishish vositasidan foydalanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va sinf rahbarlari o‘quvchilarni maktab ta’lim muhitining eng muhim jihatlari bilan muntazam tanishtirib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimiz umumiylar o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim bosqichida sinfdan tashqari ta’lim muhiti ham tashkil etilgan. Bu ta’lim muhiti muzeylarda, kutubxonalarda, teatrлarda yoki uch avlod uchrashuvlari tadbirlari vositasida tashkil qilinadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mazkur sinfdan tashqari ta’lim muhiti jarayonida intizomli bo‘lishi, mashg‘ulotlar va tadbirlarni o‘zlashtirishi, turli topshiriqlar va takliflarni bajarishi taqozo etiladi. Mana shu hol boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari ta’lim muhitiga o‘rgatish va moslashtirishni taqozo etadi. Buning uchun Yoshlar yetakchisi ishtirokida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sinfdan tashqari ta’lim va mashg‘ulotlarning hamda tadbirlarning mazmunini muntazam tushuntirib borish kutilgan natijani beradi.

Diqqat qilinsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim muhitidan oqilona foydalanishga o‘rgatish ularda kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirishning muhim asoslaridan biridir. Bunda asosiylar e’tibor o‘quvchilarning sinf, maktab va sinfdan tashqari ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini tarkib toptirish muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim jihozlaridan foydalishga o‘rgatish. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim bosqichi bugungi kunda zamonaviy ta’lim jihozlari bilan ta’minlangan va ular takomillashtirilib borilmoqda. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim jihozlaridan foydalanishga o‘rgatish ularda kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirishning

muhim tarkibiy qismidir. Bunda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) o'quv-texnik vositalardan foydalanishga o'rgatish;
- b) multimediyali ta'lim jihozlaridan foydalanishga o'rgatish;
- d) ko'rgazmali ta'lim jihozlaridan foydalanishga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar bugungi kunda kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi o'quv-texnik vositalardan oqilona foydalamoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2023-2024 o'quv yildan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ta'lim planshetlari bilan ta'minlash ham yo'lga qo'yildi. Shu ma'noda kompyuter, mobil aloqa vositasi va ta'lim plansheti bugungi kunda boshlang'ich ta'limning muhim vositalari hamda jihozlaridan biriga aylandi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini mazkur vositalardan bilim olish, tarbiya asoslarini o'zlashtirish va individual faoliyatga tayyorlanish bo'yicha foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga egadir. Bunda "Matematika" va "Informatika" o'quv fani o'qituvchilarining faol bo'lislari taqozo etiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompyuter, mobil aloqa vositasi va ta'lim plansheti "bu bilim va tarbiya olishning manbaidir" degan tushunchani tarkib toptirish ularda kommunikatsiya ko'nikmasining shakllanishini yo'lga qo'yish omillaridan biri hisoblanadi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilar bolalarbop va ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan kompyuter o'ynlaridan foydalanishga ham o'rgatilishi bu boradagi imkoniyatlarni kengaytiradi. Aynan o'quv-texnik vositalari va jihozlaridan foydalanishni bilish boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikatsiya ko'nikmasini tarkib topishida tayanch vazifasini o'taydi.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichi turli tasvirli animatsion, audio va video ovozli tasvirlarga ega multimediyadli jihozlar bilan ham izchil ta'minlanib bormoqda. Mazkur ta'lim jihizi boshlang'ich sinf o'quvchilaridan virtual aloqa va munosabatga kirishishni taqozo etadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilar ta'kidlangan multimediyali ta'lim jihozlaridan foydalanishni bilishi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, audio va videoli tasvirlarga ega mashg'ulotlar materiallari va topshiriqlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining tezkor ravishda mustaqil fikrlash va topshiriqni

bajarish bo'yicha qaror qabul qilishni taqozo etadi. Shu sababli bunday multimediyali ta'lim jihozlaridan oqilona foydalanishni o'rgatish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida vaqt omilidan unumli foydalanish ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada bizningcha, maktab valentyorlik harakati a'zolarining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra, katta yoshli valantyor o'quvchilar o'zlariga biriktirilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining multimediyali ta'lim jihozlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Buning natijasida amaliy jihatdan muhim bo'lgan o'ziga xos ko'nikmaga ega bo'linadi. Mazkur jihozlardan foydalanish ko'nikmasi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishning tayanchlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida turli ko'rgazmali jihozlardan ham foydalanish bugungi kunda keng tajribaga ega bo'ldi. Tasviriy san'at namunalari ko'rgazmasini tashkil qilish, musiqa san'ati cholg'ularini namoyish qilish, o'quv fanlari bo'yicha turli ishlanmalar va rabotatexnikalarni ta'lim jarayoniga taqdim etish, o'quvchilarining ijodiy mahsulotlaridan foydalanish kabilar ko'rgazmali ta'lim jihozlarining negizlarini tashkil etmoqda. Mazkur ko'rgazmali jihozlardan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish, tarbiya asoslarini o'zlashtirish va estetik rivojlanishi yo'lida foydalanishga ko'niktirilishi kutilgan samarani beradi. Bunda boshlang'ich ta'lim gumanitar o'quv fanlari o'qituvchilarining birgalikdagi harakati muhim o'rinni tutadi. Mazkur toifa o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ko'rgazmali jihozlardan foydalanish bo'yicha ko'nikmani tarkib toptirishi ularda kommunikatsiya ko'nikmasini yuzaga keltirishning keng imkoniyatlarini beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim jihozlaridan foydalanishga o'rgatish bilan ularda kommunikatsiya ko'nikmasini shakllantirish muhim o'rinni tutadi.

Zero, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikatsiya, ya'ni ta'lim sharoitidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish uchun keng ko'lamlari tadbirlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Bunday tadbirlarda o'quvchilarida umumiy o'rta ta'lim maktabining ta'lim sharoitidan foydalanish, ta'lim muhitidan foydalanish va ta'lim jihozlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish birlamchi

hisoblanishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish bu ularda *kommunikativ qobiliyatni* ham tarkib toptirish bilan bevosita bog‘liqdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z sinfdoshlari, o‘qituvchilari, maktab jamoasi, ota-onalari va jamoatchilik bilan faol munosabatga kirishi olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Bunda asosiy masala innovation jamiyatimiz sharoitida o‘quv-texnik vositalarga tayangan texnologiyalar asosida faol munosabatga kirishish muhim hisoblanadi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zining ustozlari yoki ota-onalarining shaxsiy kompyuterdagi ma’lumotlar bilan ularning ruxsatisiz tanishmaslik ko‘nikmasini egallashi kerak. Huddi shuningdek, sinfdoshining mobil aloqa vositasi yoki ta’lim planshetidagi ma’lumotlar bilan yashirincha tanishish hamda ularni tarqatish odob-axloq qoidasiga zid ekanligini va shaxsning individual huquqlariga rioya qilmaslik ekanligi bo‘yicha ko‘nikmalarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kommunikativ qobiliyat ko‘nikmasi tarkibini tashkil qiladi va kommunikativ qobiliyat boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kommunikatsiya ko‘nikmasidagi eng muhim jihat hisoblanadi.

Kezi kelganda eslatib o‘tish joizki, bir qarashda boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ta’lim sharoiti, ta’lim muhiti, ta’lim jihozlaridan foydalanishni va kommunikativ munosabatga kirishishni biladi. Biroq bunday bilish tabiiy ravishda tashkil topgan bo‘lib, u tizimli hisoblanmaydi. Shu sababli ko‘p hollarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mazkur vositalardan foydalanishda qiyinchilik yoki murakabliklarga duch kelishadi, hatto odob-axloq qoidalarni ham buzishadi. Shu sababli xorijiy pedagog olimlar, jumladan, Angliyalik pedagoglar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ta’kidlangan kommunikatsion vositalardan foydalanishni maqsadli shakllantirish va ularning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishni birlamchi hisoblashadi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ta’limning shu bosqichidayoq shaxs sifatida namoyon bo‘la boshlaydi.

Shunday qilib 4K modelidagi o‘quvchilarda kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirish masalasi muhim ta’limiy va tarbiyaviy

vazifalardan biridir. Ta'kidlanganlardan xulosa qilish mumkinki, aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirish bilan ularni ta’lim imkoniyatlari va sharoitlaridan o‘rinli foydalanishga tayyorlanadi hamda ularda eng muhim faoliyat asoslaridan biri kommunikativ layoqat tarkib toptiriladi. Bunda asosiy masala boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim, tarbiya va faoliyat masalasida ongli hamda faol shaxs sifatida rivojlanishidir. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bugungi innovatsion jamiyatning ehtiyojlari va talablariga mos ravishda shakllanadi. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan “Talabalar Akademiyasi” mashg‘ulotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikatsiya ko‘nikmasi bo‘yicha suhbat va treninglar o‘tkazish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi.

1.2. Kollaboratsiya (jamoia bo‘lib ishlash) ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi

Dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalarida amaliyotga joriy etilayotgan 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish ishlari bugungi kunda jamoatchilik, jamiyat vakillari va ilg‘or pedagoglarning kuzatuvida turganligini eslatib o‘tish joiz. Chunki mazkur model bo‘yicha o‘quvchilarining ko‘nikmalarini shakllantirish bilan dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalarining integratsiyasiga erishish va o‘quvchilarining tipiklashgan ko‘nikma hamda malakalariga ega bo‘lishini ta’minalash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Negaki bu borada keyingi paytlarda dunyo miqyosidagi o‘zaro anglashuvchanlik, birlik va hamkorlik omillaridan oqilona foydalanish nazarda tutilmoqda. Shujihatdan 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoniga ushbu model bo‘yicha ko‘nikmalarni tarkib toptirishga asoslangan yangi avlod darsliklari joriy etildi. Buning uchun bu modeldagi ko‘nikmalarni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur o‘rinda e’tiboringizni 4K modelidagi kollabaratsiya, ya’ni jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarkib toptirish texnologiyasi tahliliga tortamiz.

“Kollabaratsiya” tushunchasi lotincha bo‘lib, jamoa bo‘lib ishslash, jamoaviylik va jamoaparvarlik ma’nolarini anglatadi³. Shu jihatdan kollabaratsiya atamasi 4K modelida asosan jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini anglatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim olishda jamoa bo‘lib ishslashga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun eng avvalo ularda bilim olishda jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini tarkib toptirish taqozo etiladi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olishda jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun ularni quyidagilarga o‘rgatish kutilgan samarani beradi:

- 1) dars mashg‘ulotlari jarayonida jamoa bo‘lib ishslashga o‘rgatish;
- 2) uy vazifalari va topshiriqlarni bajarishda jamoa bo‘lib ishslashga o‘rgatish;

3) o‘zlashtirish jarayonida jamoa bo‘lib ishslashga o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olish bo‘yicha jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini shakllantirish uchun eng avvalo ularga dars mashg‘ulotlari jarayonidagi xatti-harakatlarga o‘rgatish kerak. Bugungi kunda dars mashg‘ulotlari shakl va metodik jihatlardan turli-tuman ekanligini eslatib o‘tish joiz. Aniq o‘quv fanlari o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning umumiy birligini va faolligini talab qiladi. Tabiiy o‘quv fanlar o‘qituvchilari o‘quvchilarning mustaqil harakat va tashabbuskor bo‘lishiga e’tibor beradi. Gumanitar o‘quv fanlari o‘qituvchilari esa o‘quvchilarning faolligi va ijodiyligini birlamchi biladi. Buning natijasida har xil dars shakllaridan foydalanilmoqda va bunda o‘quvchilar har qanday dars mashg‘ulotlaridan ishtirotk etayotganligi pedagog olimlarning nigohli munosabatlariga sabab bo‘lmoqda. Chunki dars mashg‘ulotlarining shakllari va ularni o‘tkazish jarayoni turlitumanligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ba’zida jismoniy va ma’naviy yuklama yuklayotganligi sir emas. Bundan tashqari, ota-onalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qo‘srimcha ta’limga va to‘garaklarga keng jalb etmoqda. Mazkur ta’lim mashg‘ulotlarda ham turli shakldagi va vositalarga asoslangan dars jarayoni

³ Психологическая словарь. – коллектив авторов. – Москва, 1989. С.

kechmoqda. E’tibor berilsa, bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi dars mashg‘ulotlarining rang-barangligi “yomg‘ir” ostida qolgan. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dars mashg‘ulotlari jarayonida jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish muhimdir: dars jarayonida o‘quvchilarga erkinlik berish va eshitmay yoki tushunmay qolganlarini so‘rash imkoniyatlarini taqdim etish, bunday holatlarda o‘quvchilar jamoasining birgalikdagi ishtirok etishiga e’tibor berish, o‘quvchilar bir-birlaridan nimanidir so‘raganida xolis munosabatda bo‘lish, o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini tipiklashtirish muhim bo‘lib turibdi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rang-barang dars mashg‘ulotlaridan bilim olish jarayonida jamoa bo‘lib, ya’ni o‘zaro bir-birlariga yordamlashgan holda foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, muayyan o‘quvchilar jamoasi faol hisoblanadi va ularning imokniyatlaridan o‘zlashtirishi murakaab kechayotgan o‘quvchilarda dars mashg‘ulotlarini kutilgan darajada o‘zlashtirishda foydalanish amaliy samarani beradi. Umuman, boshlang‘ich sinf o‘quvchisini dars mashg‘ulotlaridan individual va jamoaviy shakllarda foydalanishga o‘rgatish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu ishda sinf rahbarlari boshchiligidagi valantyor o‘quvchilar va jamoaparvar o‘qituvchilarning yordamlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Agar o‘quvchi muayyan dars mashg‘uloti jarayonida qaysidir jamoa tarkibida ishtirok etsa u faollashadi va aksincha, mavzuni yoki dars jarayoni holatlarini tushunmasdan tortinchoqlik bilan o‘tirsa uning jamoadan yakkalanishi tarkib topadi. Buning natijasida o‘quvchi o‘ziga boshqa olam izlaydi. Shu sababli xorijlik pedagoglar, jumladan, Yevropa mamlakatlari pedagoglari dars mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning muayyan kichik jamoalarga bo‘linib ishtirok etishini rag‘bat bilan qabul qiladi. Bu holat dars mashg‘ulotlarining maqsadiga erishishga ham ijobiylar ta’sir ko‘rsatadi hamda avtoritar dars uslubini isloh qiladi. Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi rang-barng mashg‘ulotlar jarayonida jamoa tarkibida ishtirok etish ko‘nikmasini egallashi kerak. Bir qarashda bu hol juda murakkab hisoblanadi, chunki dars jarayonida o‘quvchilarning bahslashgan ovozlari ko‘p eshitiladi. Biroq mazkur dars jarayonining yoki mashg‘ulotning samaradorligi shundaki, o‘quvchilarning faolligi

asosida u amalga oshiriladi. Umuman o‘quvchilar jamoasi dars mashg‘ulotlarining yangi vositalar, yondashuvlar hamda maqsad-muddaolar asosida o‘tishi uchun tayanch vazifasini bajaradi. Bu murakkab dars mashg‘ulotlari turlaridan dunyo pedagoglari keyingi paytlarda oqilonqa foydalanayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olish bo‘yicha jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularni uy vazifalari va topshiriqlarni birgalikda bajarishga o‘rgatish ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning bilim olish jarayonida mavzularni, tegishli matnlarni, masala va mashqlarni jamoa bo‘lib o‘zlashtirishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ularni yo‘naltirishi va o‘quvchilarda jamoa tartib-intizomiga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘zlashtirish jarayonida jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini o‘zlashtirsa, ular ta’limning keyingi bosqich va turlarida ham mazkur ko‘nikmaga tayangan holda faoliyat yuritadi. Shu sababli bunday muhim ko‘nikmalar boshlang‘ich ta’lim jarayonida tarkib toptirilishi sifatlari ta’limga erishishning eng muhim omillaridan biridir.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olish jarayonida jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasini tarkib toptirish va ularni bu ko‘nikmaga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, faol o‘quvchilar va məktəb Yoshlar yetakchisining hamkorlikdagi faoliyati muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda oliv pedagogik ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmalarini tarkib toptirish muammolari bo‘yicha ilmiy va metodik tadqiqotlar majmuini yaratish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada quyidagi mavzular bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ekanligini eslatib o‘tish joiz:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim sharoitidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi;

umumiyl o‘rtalama maktabalarida ta’lim sharoiti holati va ularni rivojlantirish asoslari;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirishga tayyorlash;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikatsiya ko‘nikmasini

shakllantirishda pedagogik amaliyotning ahamiyati.

Mazkur mavzularda ilmiy va metodik ishlanmalar yaratish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirishning muhim mexanizmlariga ega bo‘lishga olib keladi. Shu sababli mazkur masalalar oliy pedagogik ta’lim muassasalarini professor-o‘qituvchilarining e’tiborida bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiya olishda jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish. Tarbiya mamlakatimiz va jahon Pedagogikasida ta’limning uzviy qismi va eng muhim qanotidir. Chunki ta’limdan avval tarbiya yuzaga kelgan. Shu sababli “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” o‘quv fanida tarbiya birlamchi vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya jarayonida jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish va ularning bu boradagi ko‘nikmasini dolzarb masaladir. Buning uchun quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyatga ega:

- a) axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirishda jamoa bo‘lib ishlash;
- b) axloq qoidalariiga rioya qilishda jamoa bo‘lib ishlash;
- d) o‘zgalarga munosabatlarda jamoa bo‘lib ishlash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirishda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasiga tayanishi kerak. Buning uchun ularda o‘rtoqlarining yaxshi fazilatlarini o‘zlashtirish, o‘qituvchillardan namuna olish, illatlardan nafratlanish va o‘zgalarni hurmat qilish ko‘nikmalari shakllantirilishi lozim bo‘ladi. Shuni unutmaslik lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlar faqat boshlang‘ich ta’lim jarayonida tarkib toptiriladi, bunda ota-onalar, maktab jamoasi va jamoatchilik yordamchi vazifasini bajaradi, xolos. Misol uchun, bugungi kunda jamiyatimizda turli oilalar mavjud va ularning nisbatan ko‘pchiligidagi axloqiy muammolar borligini e’tirof etish kerak. Bu hol oila farovonligi bilan bog‘liq hodisadir. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish masalasida oila birlamchi vazifani bajara olmaydi. Xuddi shuningdek, maktab jamoasi va jamoatchilik ham o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha yordamchi vazifasini bajaradi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ezgulik, insonparvarlik va bunyodkorlik fazilatlarini shakllantirish

muhim hisoblanadi.⁴ Chunki mazkur axloqiy fazilatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘un ravishda o‘z ifodasini topgan. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ongida ezgulik g‘oyasini, axloqiy xarakatlarida insonparvarlik fazilatini va ideal maqsadlarida bунyodkorlik tushunchasini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Bu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish ishi samarali amalga oshiriladi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, o‘tgan asrning oxiriga qadar G‘arb mamlakatlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasida mutloq erkinlik tamoyiliga asoslanildi va natijada har qanday illatu-xislatlarni fazilat deb hisoblovchi o‘ziga xos bir avlod tarkib topdi. Buning natijasida asrimizning boshlarida G‘arb mamlakatlari pedagoglari o‘zlarining mamlakatida “axloqiy inqiroz” yuzaga kelganligini e’lon qildi va ta’lim dasturlarida tarbiya masalasini ilk rejaga chiqardi. Natijada 10-15 yil ichida G‘arb mamlakatlarda yuksak axloqli avlodning yuzaga kelganligi kuzatildi. Mazkur tajriba shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy fazilatlar uyg‘un shakllantirilishi ularning shaxs sifatida voyaga yetkazishdagi muhim tayanchdir. Bu hol kollabaratsiya ko‘nikmasining negizlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy qoidalarga rioya qilish ko‘nikmasi ham shakllantirilishi lozim. Bunda har bir o‘quvchida axloq qoidalari va me’yorlari bo‘yicha tushunchani tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Manbalarda qayd etilishicha, bir kuni Abu Ali Ibn Sino ilmiy ish bilan shug‘ullanib o‘tirganda darhol uzatilgan oyog‘ini yig‘ishtirib oladi va buni ko‘rib turgan enagasi undan so‘raydi: “Sen yolg‘izku, nega bundoq qilding?” Shunda Ibn Sino javob beradi: “O‘zimdan uyaldim”. Demak, kishi yolg‘iz qolganida ham axloqiy qoidalarga rioya qilsa, bunday ko‘nikma unda odat tusini oladi. Shu sababli bunday tajribalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga axloq qoidalariiga rioya qilishni o‘rgatish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur ish bo‘yicha umumiy o‘rtta ta’lim maktabining “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tashabbuskor va

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Ezgulik, insonparvarlik va bунyodkorlik – milliy g‘oyam-izning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021. – 3-4 b.

mas’ul bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloq qoidalariga riosa qilish ko‘nikmasini kutilgan darajada shakllantirishga erishsak, butun jamiyatda axloqiy madaniyatning tarkib topishi uchun muhim poydevorni qo‘yan bo‘lamiz. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloq qoidalariga riosa qilishi ko‘nikmasini shakllantirishda ularni tashqi salbiy ta’sirlardan muhofaza qilish ham muhim o‘rin tutadi va bunda hatto ota-onalardan ham himoya qilish kutilgan samarani beradi. Shu ma’noda ta’lim va tarbiya jarayonida axloq qoidasini o‘zlashtirgan yoki o‘zlashtirayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchisi faqat o‘qituvchilar va sinf rahbarlari mazkur masala bo‘yicha qat’iy nazoratni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zgalarga axloqiy munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini ham shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda katta va kichikni hurmat qilish, o‘rtoqlari va keksa kishilarga yordam berish, o‘zgalarni tinglay olish, suhbat jarayonida odabli bo‘lish kabi ko‘nikmalarga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faqat o‘rgatish vositasida o‘zgalarga axloqiy munosabatni o‘zlashtiradi. Aks holda, o‘zgalardan salbiy va pedagogik qoidalarga mos kelmaydigan munosabatlarni o‘zlashtirish jarayoni kechadi. Mashhur birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitrat “Oila” pedagogik risolasida shunday hikoya qiladi: “6-7 yoshli bola edi, maktabdan uyga qaytardi. Bozor oldida bir kishi o‘zini zo‘rg‘a tutib turar edi, men uning qo‘lidan tutib yordam bermoqchi bo‘ldim. Shunda bir kishi indama, axir u mastku dedi. Lekin men unga chetroqqa o‘tirishga yordam berdim. Uyga kelgach dadamga mazkur voqeani so‘zlab bergandim, dadam meni maqtadi”. Bunda Fitratning axloq qoidalariga har qanday holatda riosa qilishi o‘z ifodasini topgan va shu sababli dadasi uni rag‘batlantirgan. Bugun-chi? Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi mana shunday holatda birovga yordam bersa, ota-onalaridan dakki eshitadi. Chunki ularning nazdida mast yoki nuqsonga ega kishi komil hisoblanmaydi. Vaholangki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun har qanday kishi inson hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zgalarga munosabatini tabiiylik va holislik tamoyillari asosida shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiya olishda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun ularning axloqiy fazilatlarini shakllantirish, axloq qoidalariga rioya qilish va o'zgalarga munosabatini tarkib toptirish muhim omil hisoblanadi. Mazkur masalalar bo'yicha milliy pedagogik tajribamizga tayanish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig (baxtga eltuvchi ilm)" asarida yosh bolalarni yolg'on gapirmaslikka o'rgatish bilan ularning tarbiya bo'yicha ko'nikmasini tarkib toptirish g'oyasini asoslab bergen. U shunday yozadi: "Bir kishi yo'l chetida o'tirgan edi va hammaning yolg'on gapirmasligi bilan e'tirofini qozongandi. Shunda bir odam yugurib o'tayotib unga dediki, meni quvib kelayotgan mirshabga ko'rganingni aytma. Ko'p o'tmay uni quvib kelayotgan mirshab yetib keldi va so'radi: shu yerdan bir kishi o'tmadimi, u o'g'ri edi. Haligi o'tirgan kishi o'rnidan turib ikki qadam yurdida ko'rmadim dedi". Bunda shunday ma'no bor: birinchidan, o'g'ri bo'lsa ham inson o'tirgan kishidan yordam so'radi; ikkinchidan, u o'rnidan turib ikki qadam yurib o'tirib ko'rmadim deyishi bilan yolg'on gapirmadi, chunki avvalgi o'tirgan joyida ko'rgan edi va keyingi o'tirgan joyida esa ko'rmadi. Bunday tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy fazilatlar va qoidalarga rioya qilishga o'rgatish amaliy samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlanishda jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kollaboratsiya ko'nikmasini shakllantirish uchun ularni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish va bunda faoliyatga tayyorlash muhim o'rin tutadi. Shaxs faoliyatida jamoaning ta'siri katta bo'ladi va bu ta'sir ijobjiy yoki salbiy xususiyatlarga egaligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samari beradi:

- a) o'quvchilarda maqsad-muddaoni tarkib toptirish;
- b) o'quvchilarda o'zgalarni tushunish ko'nikmasini tarkib toptirish;
- d) o'quvchilarda jamoaparvarlik fazilatini tarkib toptirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlash jarayonida ularda maqsad-muddaoni tarkib toptirish muhim o'rin tutadi. To'g'ri pedagogik tajribadan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari

kasbning barcha turlarini tanlashga qiziqadi va o‘zgalarga samimiy ma’nodagi taqlid qilishadi. Biroq, ularning layoqat va qiziqishlaridan kelib chiqib maqsad-muddaosini tarkib toptirish muhimdir. Buning uchun o‘quv fanlari o‘qituvchilarini ularni yo‘naltirishi, maqsadlari yo‘lida o‘zgalar bilan hamkorlik qilishni o‘rgatishi, kishi maqsadga tanho ravishda yeta olmaslikni tushuntirishi, odamda ideal muddaolar bo‘lishi kabi ko‘nikmalarni o‘rgatishi dolzarb ekanligini eslatib o‘tish joiz. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida talab va yuksak darajadagi maqsad-muddaoni tarkib toptirishga erishilsa, ular tabiiy ravishda jamoaga intiladi. Chunki jamoa shaxsga yordam beruvchi dastlabki omildir. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida maqsad-muddaoni shakllantirish ishida ular ishonadigan oila a’zolari bilan hamkorlik qilish samarli hisoblanadi. Chunki oila a’zolaridan kimdir bolani yaxshi tushunadi va uning intilishlaridan xabardor bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ideal maqsad-muddaolarni tarkib toptirish bilan ularni samarali faoliyatga tayyorlash mumkin. Misol uchun, Alisher Navoiyda shoirlik qobiliyatini mavjudligini sezgan ota-onasi unga juda yoshligidan boshlab kitob tanlab bera boshlaydi. Navoiy o‘zining “Lisonut-tayr (Qush tili)” asarida hikoya qiladi: “Esimda, 6-7 yoshli bola edim. Ota-onam menga Fariddudin Attorning “Mantiq ut-tayr” (Qush mantig‘i) asarini o‘qishimni tavsiya etdi. Asar menga yoqib qoldi va o‘rtoqlarim bilan o‘ynashdan ham voz kechdim. Buni sezgan ota-onam kitobni mendan olib, yashirib qo‘ydi. Lekin men asarni yodlab olgan edim va ichimda takrorlab yurardim”. Chunki Fariddudin Attorning mazkur asari Navoiyni yolg‘izlikka dav’at qilgan va shu sababli ota-onasi mazkur asarni o‘qishni man qilgan. Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ideal darajadagi maqsad-muddaoni tarkib toptirishda pedagogik talab va qoidalarga rioya qilish kutilgan samarani beradi. Negaki, maqsad-muddaoga ega o‘quvchi faoliyatga tayyorgarlik poydevoriga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faoliyatga tayyorlashda ularni o‘zgalarni tushunish ko‘nikmasini tarkib toptirish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ularda o‘zgalarni tinglay olish, suhbat jarayonida suhbatdoshiga e’tibor berish, o‘rtoqlarining holati to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish, o‘qituvchilarining topshiriqlarini bajarishni bilish, ota-onalarga har qanday holatda

ham hurmatda bo‘lish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish taqozo etiladi. O‘zgalarni tushunish kollaboratsiya ko‘nikmasida muhim ahamiyatga va o‘zgalarni tushunmaslik jamoaga qo‘shilmaslikning asosi hisoblanadi. Mashhur adib Erix Fromm “Yolg‘izlik” asarida ikki yoshdan boshlab bolalarga jamoaparvarlik tuyg‘usini tarkib toptirishni asoslab bergen va agar uning fikricha, yoshlar me’yorsiz individual shaxs bo‘lib voyaga yetsa, jamiyatdan qochish vaziyati yuzaga keladi. Jamiyatni sevmaslik va undan o‘zni tiyish jamiyatning inqiroziga sabab bo‘ladi. Shu sababli jamiyatparvar va jamoaparvar bo‘lish uchun o‘zgalarni tushunish ko‘nikmasiga ega bo‘lish taqozo etiladi. Bu borada xalqimizning jamoaparvarlik qadriyatidan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zgalarni tushunish ko‘nikmasini tarkib toptirish ishida o‘qituvchilarining o‘rni muhimdir va har bir mashg‘ulot jarayonida bu masala ularning diqqat markazida bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoaparvarlik ko‘nikmasini tarkib toptirishda ularning individual manfaatlarini korreksiya qilish taqozo etiladi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini o‘zgalar manfaatlaridan ustun qo‘ymaslik ko‘nikmasini egallashi kerak. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zni tiya olish, o‘rtoqlarini hurmat qilish, biror buyum yoki narsadan guruh bo‘lib foydalanish, o‘zgalardan narsalarni qizg‘onmaslik, o‘zining yaxshi hulqi bilan o‘zgalarga ibrat bo‘lish ko‘nikmalarni tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bizning xalqimiz milliy qadriyatlarida o‘zgalar manfaatlarini ustun qo‘yish jamoaparvarlikning asosi sifatida qabul qilingan. Shu sababli arab sayyohi Ibn Batuta “Sayohatnoma” asarida shunday yozadi: “Dunyoda Movarounnahrlik xalq kabi jamoaparvar odamlar yo‘q, ular o‘z dushmanlariga ham yaxshilik qiladi va buni jamoaparvarlikning asosi deb biladi”. Chunki dushmanga yoki yomon odamga yaxshilik qilish uni do‘shta aylantiradi. Buning natijasida jamoaning tarkibi kengayadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoaparvarlik ko‘nikmasini tarkib toptirishda eng avvalo ularni insoniylik qoidalariga rioya qilishga o‘rgatish kerak. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoaparvarlik ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faoliyatga tayyorlash muhim asoslarga ega. Bunda ularni o‘zni anglash, o‘zgalarni tushunish, ideal maqsad-muddaolarga ega bo‘lish va hurmat ko‘nikmalarini maqsadli tarkib toptirish muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib 4K modeli bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kollaboratsiya, ya’ni jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olish jarayonida, tarbiya olish jarayonida va faoliyatga tayyorlanish jarayonida jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim o‘rin tutadi. Mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy va metodik ishlanmalarni yaratish dolzarb bo‘lib turibdi.

1.3. Kreativlik (ijodiy yondashuv) ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi

Jahon mamlakatlari ta’lim tizimida tipiklashgan va uzviy ta’lim dasturlaridan foydalanish hamda ular vositasida ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini talab darajasida tarkib toptirish jarayoni kechmoqda. Bu borada mamalkatimiz ham faol ishtirok etayotganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Shu jihatdan jahon mamlakatlari ta’lim tizimida amal qilib kelayotgan ana shunday xalqaro miqyosdagi yondashuvlardan biri 4K modeli bo‘yicha ta’lim oluvchilarning ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu o‘rinda e’tiboringizni mazkur model tarkibiga kiruvchi Kreativlik ko‘nikmasi tahliliga tortamiz.

“Kreativ” atamasi lotincha bo‘lib, ijodiylik, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish va bunyodkorlik kabi ma’nolarni anglatadi.⁵ Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik ko‘nikmasini tarkib toptirish va ularni keyingi ta’lim faoliyatiga yo‘naltirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy layoqatini rivoj-lantirish. Ijodiy layoqat – kreativlik ko‘nikmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining

⁵ Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т., 2009. 236 бет.

ijodiy layoqatini rivojlantirish uchun eng avvalo quyidagilar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy layoqatini aniqlash;
- b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy layoqatini ta’lim vositasida rivojlantirish;
- c) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy layoqatini tarbiya vositasida rivojlantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik ko‘nikmasini shakllantirish ishi eng avvalo ularning ijodiy layoqatini aniqlashdan boshlanadi. Har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi muayyan darajada tabiiy ijodiy layoqatga ega bo‘ladi. Mazkur masala o‘quvchilarining ijodiy layoqatini aniqlashda hisobga olinishi kerak. Chunki maktabgacha ta’lim muassasalarini va oilada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy layoqati nisbatan tizimlashgan bo‘ladi. Shu sababli o‘quvchilarining ijodiy layoqatini aniqlashda suhbat, maxsus savollarga asoslangan test, kuzatish va tahlil metodlariga tayaniladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy layoqatini aniqlashda ularning aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo‘yicha layoqatga egalik darajasini belgilab olish kutilgan samarani beradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar ko‘p hollarda aniq va gumanitar fanlar bo‘yicha ijodiy layoqatga ega bo‘lishadi. Chunki aniq va gumanitar fanlarga ijodiy yondashish, shaxsning ijodkorligini tarkib toptirish va o‘zligini namoyon qilish xususiyatlari xos. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyaviy tadbirlarida aniq va gumanitar fanlarning mazmuniga mos ma’nolar mavjud. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur fanlar bo‘yicha ijodiy layoqatning tizimlashgan shakli mavjud bo‘ladi. Ayni paytda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha ijodiy layoqatini maxsus metod asosida aniqlash ham zaruriyat hisoblanadi. Bu metodga ko‘ra, hayvonot olami yoki o‘simliklar dunyosi bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilar xususiyatlariaga mos test tuzilib, uning vositasida bolaning tabiiy fanlar bo‘yicha ijodiy layoqati belgilab olinadi. Aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining layoqatini aniqlashda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar, sinf rahbarlari va oilaning faol a’zosi hamkorlikda ishlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘quv fanlari o‘qituvchilar o‘quvchilarining

qaysi fanlar bo'yicha layoqatga egaligini aniqlaydi, sinf rahbari bu ishni muvofiqlashtirib boradi va oilaning faol a'zosi bolaning qiziqishi bo'yicha ma'lumot beruvchi moderator vazifasini bajaradi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv fanlari kesimi bo'yicha ijodiy layoqati aniqlanib, ular imkoniyatga ega bo'lgan o'quv fanlarini chucurlashtirib o'qitish yoki qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuni eslatib o'tish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy layoqatini to'g'ri aniqlash uning keyingi faoliyati uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli imkon qadar mazkur masalada metodist mutaxassislar yoki O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining viloyatlar hamda tumanlardagi (shaharlardagi) metodistlar yordamidan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqati aniqlab olingach, uni ta'lim vositasida rivojlantirish tadbirlari belgilanadi. Bunda o'quv fanlari turkumlari bo'yicha chucurlashtirilgan bilim berish, laboratoriya va to'garaklar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, o'zlashtirgan bilimlarni sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar vositasida mustahkamlash muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqat darajasiga ko'ra, ularni aniq, tabiiy va gumanitar fanlar o'qituvchilariga biriktirib qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchilar o'zlariga biriktirilgan o'quvchilar bilan individual yondashuv asosida qo'shimcha ta'lim ishlarini amalga oshiradi, o'quvchilarga qo'shimcha ma'lumotlarni topish va adabiyotlar bilan tanishishda yordam beradi. Buning natijasida ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini rivojlantirish jarayoni kutilgan darajada kechadi. Bu borada ayniqsa, fan olimpiada imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'quvchilarining ijodiy layoqatini amaliyot bilan bog'lovchi vositadir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqatiga asosan fan olimpiadalarini dasturlari asosida qo'shimcha o'qitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablari biriktirilgan oliy pedagogik ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va axborot-resurs markazlari imkoniyatlaridan ham foydalanish o'quvchilarining ijodiy layoqatini ta'lim vositasida rivojlantirish jarayonini kuchaytiradi. E'tibor berilsa, ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining

ijodiy layoqatini rivojlantirish imkoniyatlari kengdir. Shu sababli bu ish o'quv fanlari o'qituvchilari va boshlang'ich ta'lif Metodik birlashmasi a'zolari bilan birgalikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy layoqati bilim vositasida kutilgan darajada rivojlantirilsa, ta'lifning keyingi bosqichi yoki turlarida mazkur rivojlanish jarayoni tizimli davom etadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy layoqatini rivojlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish muhim masala hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha ilmiy va metodik tadqiqotlar majmui yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Bunday tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini rivojlantirish asoslari, vositalari, texnologiyalari, mezonlari va ijodiy layoqatning rivojlanganlik darajasini aniqlash indikatorlari ishlab chiqilishi kerak bo'ladi. Biz mazkur masala bo'yicha oliv pedagogik ta'lif muassasalarida faoliyat yuritayotgan "Maktab-laboratoriya", "Talabalar Akademiyasi" kabi tuzilmalarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi, deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda tarbiya vositasi ham muhim o'rinn tutadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisining estetik ongi, didi va tuyg'ulari rivojlantirilishi, ularning estetik tarbiyasi amalga oshirilishi kerak bo'ladi. Aynan mana shunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi ongida maqsadli g'oyalar, didida hissiyot va tuyg'ularida poklik bo'lishi kerak, bu masalalar aynan ijodiy layoqatning negizlaridir. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini rivojlantirishda ularni salbiy g'oyaviy ta'sirlardan muhofaza qilish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ba'zida katta yoshlilar yoki oila a'zolaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy layoqati rivojlanishiga salbiy ta'siro ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchisi biror rasm chizsa, u rag'batlantirilishi kerak va aksincha, uning rasmi tanqid qilinmasligi lozim. Faqat mulohaza sifatida boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy ishlanmasidagi kamchiliklarni to'g'rilash tavsiya etiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maqtov yoki to'g'ri yo'naltirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatini rivojlantirishdagi muhim vositalardan hisoblanadi. Shu sababli

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlariga biriktirilgan o‘quvchilar bilan maxsus shug‘ullanishi taqozo etiladi. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodiy layoqati to‘g‘ri rivojlantirilsa, ta’limning keyingi bosqich va turlari bu masalada tizimli yondashish imkonini beradi. Umuman biz har bir o‘quvchining ijodiy layoqatini rivojlantirish imkoniyati bor, deb hisoblaymiz. Shu sababli mazkur masala boshlang‘ich sinf rahbarlari tomonidan nazoratga olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda eng avvalo ularning ijodiy layoqatini aniqlash, ta’lim va tarbiya vositasida rivojlantirish tadbirlarini belgilash muhim o‘rin tutadi. Bundagi oltin qoida “har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi muayyan darajadagi ijodiy layoqatga ega” yondashuvidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda ularni ijodiy fikrlashga o‘rgatish ham muhim o‘rin tutadi. Ijodiy fikrlash – bu shaxsning muayyan masala, hodisa va voqelikka nisbatan individual yondashuvidir.⁶ Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatish 4K modeli bo‘yicha ularning ko‘nikmalarini tarkib toptirishdagi muhim tayanchlardan hisoblanadi. Bunda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) boshlang‘ich sinf o‘quvchisida fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish;

b) boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ijodiy yondashish ko‘nikmasini tarkib toptirish;

c) boshlang‘ich sinf o‘quvchisini ijodiy izlanishga odatlantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda ularda fikrlash tarzini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, o‘quvchi o‘qiyotgan matn, ko‘rayotgan tasvir yoki voqelik-hodisalarga o‘zining munosabatini bildirishi va mustaqil fikrini izhor etishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiatan fikrlashga moyil bo‘ladi. Bunda ularning nisbatan ko‘p

⁶ Jabborova O., Tashpulatova D.M. ART texnologiya va kreativlik. – Chirchiq, 2023.

so‘zlashishi muhim o‘rin tutadi. Kamgap yoki tortinchoq boshlang‘ich sinf o‘quvchida fikrlash jarayoni tizimlashmagan bo‘lishini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fikrlashga o‘rgatishda ularning fikrini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb baholash, fikrni bo‘lish kabi illatlardan tiyilish lozim. O‘quvchi to‘g‘ri, noto‘g‘ri, ijobiy yoki salbiy fikrlashni namoyon qiladimi, demak u fikrlash ko‘nikmasini o‘zlashtirish jarayonida bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fikrlayotgan o‘quvchilarini oxiriga qadar tinglashi, uning fikridagi kamchiliklarni pedagogik metodikalarga asosan korreksiyalab borishi, psixologik ta’sir vositasida o‘quvchilarini fikrlashga da’vat qilishi va o‘quvchilarining har bir fikriga e’tibor bilan qarashi taqozo etiladi. Shu sababli buyuk shoirimiz Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub (Ko‘ngillarning sevgani)” asarida yaxshi o‘qituvchini baholashning asosiy mezoni sifatida uning shogirdlarining fikrlashini belgilab ko‘rsatgan. Navoiyning fikricha, yaxshi muallim shogirdini fikrlashga o‘rgatadi va bu bilan o‘zining faoliyatini baholash mezonini taqdim qiladi. Yoki, Bahouddin Naqshband shunday degan: “Bizdan keyingi avlodning dastlabki qadami bizning so‘nggi qadamimiz bo‘lishi kerak”, ya’ni yosh avlod butunlay yangicha fikrlashga o‘rganishi kerak, demakdir. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fikrlashga o‘rgatishda bunday tajribalardan foydalanish metodik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlik ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularning narsa va hodisalarga ijodiy yondashuvini tarkib toptirish taqozo etiladi. Ijodiy yondashuv – bu shaxsnинг muayyan masalaga o‘zining individual munosabat bildirishidir. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy yondashuvni tarkib toptirish uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) o‘quvchilarining yondashuv munosabatini tarkib toptirish;
- b) o‘quvchilarining individuallar munosabatini tarkib toptirish;
- d) o‘quvchilarida munosabat ko‘nikmasini rivojlantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tortinchoqlik yoki tiyilish kabi sifatlar bo‘lmaydi. Ular faolligi bilan o‘quvchilar tarkibida ajralib turadi. Mana shu omilga tayangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yondashuv munosabatini tarkib toptirish muhim

ahamiyatga ega. Buning uchun ularning tortinchoqlik, passivlik, murakkablik oldida qiynalish kabi hislatlarini korreksiya qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘p gapiradigan bola tortinchoqlik hissidan xoli bo‘ladi va u mudom faollikka intiladi. Mana shunday faollik hissi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yondashuv munosabatini tarkib toptirishga asos bo‘ladi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ta’lim jarayonida, tarbiyaviy tadbirdorda va amaliy mashg‘ulotlarda faol bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun ularning munosabatlariga salbiy baho bermaslik kerak. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va yoshlar yetakchilari faol bo‘lmagan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan shug‘ullanishi ularda o‘ziga xos yondashuv munosabatini tarkib toptirishga olib keladi. Bugungi kundagi boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri ham o‘quvchilarning munosabatlarini talab darajasida tarkib toptirishdan iborat. Chunki axborotlar va ma’lumotlar ko‘pligi sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yondashuv munosabat ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining turli salbiy axborotlar ta’siridan himoya qilish imkoniyatlariha ham ega bo‘linadi. Chunki o‘zining munosabatiga ega o‘quvchi tabiiy ravishda yolg‘on va noto‘g‘ri ma’lumotlardan himoyalanish immunitetiga ega bo‘lishi bilan ahamiyatlidir. Bu hol ularda kreativlik ko‘nikmasini tarkib toptirishning muhim negizlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida individual munosabatni tarkib toptirish eng muhim masalalardan biridir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har bir masala, voqeilik va hodisalarga munosabat bildirishda o‘z fikriga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash, ijodiy munosabat, o‘z fikrini bayon qila olish kabi ko‘nikmalarni tarkib toptirish dolzarb hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarning fikrini tinglay olish, ularning fikr bildirishlarini rag‘batlantirish, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrlashidan qat‘iy nazar munosabat bildirish, ijodkorlik tuyg‘usini shakllantirish kabi masalalarga e’tibor berish muhim o‘rin tutadi. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi faollik bilan fikr bildirsa va uning fikrining ko‘lamidan qat‘iy nazar rivojlanayotganligi namoyon bo‘ladi. Shu sababli har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisini individual

fikrlashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari va to‘garaklar imkoniyatlaridan oqilona foydalanishi taqozo etiladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida individual fikrlash ko‘nikmasini tarkib topishida Yoshlar tashkilotining tadbirlari ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli mazkur tashkilotlar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bu borada o‘ziga xos omillarni beradi. Yoshlar tashkilotining tadbirlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nafaqat ishtirok etadi, balki fikrlash, tushunish va ommaviylik kabi fazilatlarni ham o‘zlashtiradi. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida munosabat ko‘nikmasini tarkib toptirish ularning ijodiy fikrlash asosidir. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘zining individual va ijodiy fikriga ega bo‘lsa, unda ijodiy fikrlashning o‘ziga xos ko‘nikmalar paydo bo‘ladi. Buning uchun muayyan matnlarni tahlil qilish, voqeldik va hodisalarga nisbatan mustaqil munosabat bildirish ko‘nikmalarini tarkib toptirish, tortinchoqlik va passivlik illatlarini korreksiya qilish taqozo etiladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarani aniq, tabiiy va gumanitar fanlar kesimida muayyan ichki guruhlarga bo‘linadi. Shu ma’noda aniq va tabiiy fanlar turkumidagi o‘quvchilar guruhida munosabat ko‘nikmasini nisbatan qat’iy shakllantirishga e’tibor berish kerak. Gumanitar fanlarning xususiyati shundaki, ular o‘quvchilarda faoliy ko‘nikmasini tarkib toptiradi va shu sababli mazkur fanlar guruhidagi o‘quvchilarda munosabat ko‘nikmasini nisbatan tabiiy ravishda rivojlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida munosabat ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bunday mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi va munosabat ko‘nikmasini namoyon qiladi. Demak, mazkur masalada boshlang‘ich sinf rahbarlarining faol bo‘lishi taqozo etiladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun eng avvalo ularda ijodiy munosabat, individual fikrlash va o‘ziga xos yondashuv ko‘nikmalarini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu 4K modeli bo‘yicha o‘quvchilarning kraetivlik ko‘nikmasini shakllantirishdagi muhim mexanizmlardan biridir. Shu sababli bu borada gumanitar turkumdagini

o‘quv fanlari o‘qituvchilarining faol bo‘lishi va maqsadli tadbirlarni amalga oshirishi kutilgan samarani beradi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi bilan qurollantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda majburiy (mutaxassislik) va tanlov fanlarining mavzulari hamda mazmuni o‘zida 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishni ifodalashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalash. Jamiyatimizning texnologik va innovatsion rivojlanish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalash va uning vositasida o‘quvchilarda kreativlik ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu ma’noda estetik tarbiya – bu shaxsnинг go‘zallikni his qilishi, narsa va voqeilikdan zavq olishi, har bir hodisaning tabiiy go‘zalligini tushunishi, Ona tabiat va insonlarga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarining majmuidir. Bunda asosiy masala boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafosat, ya’ni go‘zallikdan zavqlanish va xunuklikni farqlash ko‘nikmasini tarkib toptirishdir. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlik ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun quyidagilarni amalga oshirish taqozo etiladi:

- a) o‘quvchilarning tuyg‘ularini rivojlantirish;
- b) o‘quvchilarda zavqlanish hissini tarkib toptirish;
- d) o‘quvchilarni go‘zallikni qadrlashga o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida his-tuyg‘ular tabiiy bo‘ladi. Bu borada Abu Ali Ibn Sinoning “Najot” asarida bayon qilingan fikrlar hozirgi zamон Pedagogikasi tomonidan e’tirof etilgan. Unga ko‘ra, bola tabiiy tuyg‘ularga ega bo‘ladi va bu uning inson sifatidagi mavjudotligini belgilaydi, shu sababli bolaning tuyg‘ularini to‘g‘ri shakllantirish ota-onalarning vazifasidir. Biroq bugungi kunda mazkur masalada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘rni muhim ekanligini eslatib o‘tish joiz. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’limiy va tarbiyaviy tadbirlar vositasida o‘quvchilarning tuyg‘ularini rivojlantirish, uni korreksiya qilish va yo‘naltirish vazifalarini bajaradi. Tuyg‘u – bu ongda ro‘y beradigan ruhiy qo‘zg‘alish jarayoni bo‘lib, u shaxsni xatti-harakatga boshlaydi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiiy tuyg‘ularga egaligi

bilan diqqatni tortadi. Ularning pokiza tuyg‘ularini salbiy ta’sirlardan himoya qilish, ularni salbiy xatti-harakatlardan tiyilishga o‘rgatish va har bir tabiiy narsadan zavqlanishga ko‘niktirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda oilalarning turli-tumanligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tuyg‘ularini rivojlantirishda o‘qituvchilarning faol bo‘lishi taqozo etiladi. Bunda “bola-hamisha haq” tamoyiliga asoslanish kerak. Aks holda bolaning tuyg‘usi rivojlanmaydi va uning diydasi qotib boradi. Texnologik rivojlanish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy tuyg‘ularini rivojlantirish bilan ularni estetik jihatdan kutilgan darajada tarbiyalashga erishish mumkin. Chunki texnik va texnologik vositalar bolaning tuyg‘usiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum. Aynan tuyg‘uni to‘g‘ri rivojlantirish va uni muhofaza qilish vositasida estetik tarbiya samaradorligiga erishish mumkin.

Zavq – bu go‘zallikdan bahra olish va go‘zallik yaratishga intilish tuyg‘usidir. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida narsa, hodisa va voqelikdan zavqlanish ko‘nikmasini tarkib toptirish ularda kreativlikni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘ziga yoqqan har bir narsadan zavqlanadi. Shu sababli dars mashg‘ulotlari, tarbiyaviy tadbirlar va amaliy choralarining turli-tuman bo‘lishi, bunda rang-barnglikka intilish hamda ularda o‘quvchilarning faolligiga tayanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zavqlanish ko‘nikmasini tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi. Bu borada sinf xonaning jihozlanishiga e’tibor berish, to‘garaklar mashg‘ulotlarining va ular o‘tkaziladigan xonalarning dizayn qoidalariga mos ravishda jihozlash kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Bularning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘ziga xos zavqlanish ko‘nikmasini tarkib toptirishga erishiladi. Mashhur faylasuf Aflatun go‘zallikdan zavqlanmaydigan kishidan qo‘rqish kerak, mazmunida fikr bildirgan. Chunki zavqlanish va go‘zallikni his qilish ko‘nikmasidan bebahra bo‘lish kishi ongida yomonlik tuyg‘ularining tarkib topishiga olib keladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zavqlanish ko‘nikmasini shakllantirish boshlang‘ich ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon boshlang‘ich sinf o‘quvchisi texnik vositalardan keng foydalanmoqda va ularni

estetik zavqlanish kabi ko‘nikmalarini maqsadli shakllantirib borish kutilgan samarani beradi.

Mamlakatimiz va ona yurtimiz tabiatni nihoyatda go‘zal, uning to‘rt fasli ham go‘zallikka boy ekanligi bilan diqqatni tortadi. Shu ma’nda xalqimiz ham go‘zallik masalasida o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lib, kiyinrishdan tortib o‘ziga oro berishgacha milliy qadriyatlarga ega. Buning sababi dunyoda millat sifatida yashashga bo‘lgan intilishning hosilasidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini aynan go‘zallikni his qilish va uni qadrlashga o‘rgatilishi estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir. E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi katta yoshlilar sezmaydigan narsalarning ham go‘zalligini his etadi. Aynan mana shu tuyg‘u vositasida ularni go‘zallikni qadrlashga o‘rgatish muhim ahamiyatga egadir. Sabr-toqatli bo‘lish, yomonlikdan tiyilish, yaxshilikka intilish va o‘zgalarni tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish vositasida go‘zallikni qadrlash tarkib toptiriladi. Go‘zallikni qadrlashga o‘rgangan o‘quvchi kiyinish madaniyati, yurish-turish va xatti-harakat qoidalariga rioya qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Kezi kelganda eslatib o‘tish lozimki, misol uchun, kiyinish madaniyati go‘zallikni qadrlashning negizini tashkil qiladi. Bunda kiyimning bahosi emas, balki sifati go‘zallikni namoyon qilishini hisobga olish lozim. Shu ma’nda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini keng ko‘lamli ravishda go‘zallikni qadrlashga ko‘nktirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun ma’naviyatga oid tadbirlarning sifat ko‘lamiga va boshlang‘ich sinf rahbarlarining faolligiga tayanish kutilgan samarani beradi. Umuman ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘quvchilarga zavq berishi, ularni go‘zallikka o‘rgatishi va qadrlash tuyg‘ularini rivojlantirishga hizmat qilishi kerak. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida go‘zallikni qadrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish omili hisoblanadi.

E’tibor berilsa, estetik tarbiya asosini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida oqilona munosabat, ijodiy yondashuv va estetik onglilikni tarkib toptirish vositasida amalga oshiriladi. Buning uchun o‘quvchilarning tuyg‘ulari, zavqlanish hislari va go‘zallikni tushunish ko‘nikmalari tarkib toptirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masala bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini haftalik pedagogik amaliyot davrida tajriba-sinov o‘tkazishi metodik jihatdan o‘z samarasini berishini eslatib o‘tish joiz.

Shunday qilib 4K modeli bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlik ko‘nikmasini shakllantirish uchun dars mashg‘ulotlari, to‘garaklar, sinfdan va mактабдан tashqari mashg‘ulotlar imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining layoqatini rivojlantirish, ijodiy fikrlashini tarkib toptirish va ularni estetik tarbiyalash muhim o‘rin tutadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va rahbarlarining faolligi taqozo etiladi.

1.4. Kretisizm (tanqidiy fikrlash) ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi

Jahon mamlakatlari ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini tarkib toptirish jarayoni kechmoqda. Bunda dunyo miqyosida o‘quvchilarning ko‘nikmalarini tipiklashtirish, ularning o‘zaro tushunuvchanlik malakalarini tarkib toptirish va ijtimoiy faollashtirish nazarda tutilgan. Shu sababli Angliyaning Kembrij kolledi pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan 4K modeli bu borada asos sifatida qabul qilingan. Mazkur modelning tarkiblaridan biri o‘quvchilarda *kritisizm* ko‘nikmasini tarkib toptirishdir.

“Kritisizm” tushunchasi lotincha bo‘lib, tanqidiy fikrlash, o‘ziga xos munosabat va individual yondashuv ma’nolarini anglatadi. Shu sababli mazkur atamaning ana shu tushunchalariga e’tibor berish kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy yondashuvga o‘rgatish. Tanqidiy yondashuv – bu ma’lumot, narsa, hodisa va voqelikka nisbatan munosabatdir. Bu o‘rinda “tanqid” tushunchasining negizini “naqd”, ya’ni aniq fikr bildirish tashkil etishini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy yondashuvi – bu ularning aniq yondashuvini ifodalaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- a) o‘quvchilarning to‘g‘ri munosabatini tarkib toptirish;
- b) o‘quvchilarni aniq fikrlashga o‘rgatish;
- d) o‘quvchilarning tanqidiy yondashuvlarini korreksiyalab borish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kretisizm, ya’ni tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Buning uchun o‘quvchilar har bir axborot va ma’lumotga aniq yondashuv asosida munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini o‘zlashtirishi taqozo etiladi. Aynan aniq munosabat o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashning asosi bo‘lib, unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z munosabatlarini istalgan vaziyat va vaqtida bildirish imkonini beradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri munosabatni shakllantirish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joizdir. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinf rahbarlari va haftalik pedagogik amaliyotni o‘tayotgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zaro hamkorlikda har bir o‘quvchi bilan individual ishlashi taqozo etiladi. Chunki individual ishlash o‘quvchilarda to‘g‘ri munosabatni tarkib toptirishning muhim vositasidir. Shu ma’noda mazkur toifa pedagoglarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining biriktirib qo‘yilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ayniqsa, haftalik pedagogik amaliyot o‘tayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish bo‘yicha faolligiga tayanish kutilgan samarani beradi. Shu sababli talabalarning amaliyot daftarida bunday ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha rejalarining mavjud bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Buning natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi kengayib borishini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularni to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda to‘g‘ri fikrlash – bu individual fikrni bayon qilish, ma’lumotlar va axborotlarni tahlil qila olish hamda o‘z munosabatini bildirish majmuidir. Ko‘pchilik pedagoglar to‘g‘ri fikrlash deganda darsliklar va o‘quv adabiyotlarida taqdim etilgan ma’lumotlarni ifodalashni nazarda tutishadi. Bu masalaning bir tomoni. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, to‘g‘ri fikrlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining voqelikka nisbatan o‘z munosabatini bildirish hisoblanadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikri to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, ijobiy yoki salbiy xususiyatlarga egaligi hisobga olinmaydi. Chunki fikrlash jarayonida mazkur bosqichlar o‘quvchilar tomonidan o‘taladi. 1-2sinflarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida

to‘g‘ri fikrlash ko‘nikmasi shakllanish jarayonida bo‘lganligi uchun bu masala boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tomonidan korreksiya qilib borilishi kerak. 3-4 sinflarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining to‘g‘ri fikrlash ko‘nikmasi rivojlanish jarayonida bo‘ladi va shu sababli bu borada ularning so‘z boyligini ko‘paytirishga e’tibor berish kutilgan samarani beradi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun ularning atamalar ma’nolari bo‘yicha bilimdonligini yo‘lga qo‘yish kerak. Chunki atamalar mazmunida adabiy tilda so‘zlash xususiyati mavjud. Aynan adabiy tilda so‘zlash vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri fikrlash ko‘nikmasi tarkib topadi. Bunda shevada so‘zlash muayyan cheklanganlikni keltirib chiqarishini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatishda ularni atamalar ma’nolari bilan tanishtirib borish masalasini birlamchi deb bilamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun ularning mazkur tajribasi korreksiyalanib borilishi kerak. Unga ko‘ra, fikrlashda nisbatan ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yayotgan yoki noto‘g‘ri fikrlayotgan o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi sayqallashtirib boriladi. Aks holda o‘quvchi muayyan masala bo‘yicha faqat tanqidiga berilishga odatlanib qoladi. Shu jihatdan pedagog olimlarimiz ta’kidlashganidek, “tanqidiy fikrlash – bu berilgan fikrlar doirasidan chetga chiqadigan fikrlarning mavjudligi bo‘lib, unda mavzuda yangi o‘lchovlarni ko‘rish, muammolarni izlash va yechish, shuningdek, dalillangan asosda yozish yoki munozaralar shaklida ifodalananadigan fikrlar o‘rtasidagi tafovutdir”.⁷ Bir so‘z bilan aytganda darslik va o‘quv adabiyotlarida taqdim etilgan fikrlarga nisbatan muqobil fikr bildirishdir. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun ularda mavzularga nisbatan yangicha munosabatda bo‘lish, muammolarni idrok qila olish va yechimini topish hamda o‘z fikrini dalillar asosida ifodalash ko‘nikmasini shakllantirish lozim bo‘ladi. Bunda “Ona tili va o‘qish savodxonligi”, “Tarbiya”, “Texnologiya” kabi o‘quv

⁷ Ж.Хасанбоев ва бошк. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т., 2009. 448-бет

fanlarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur fanlar o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, o‘z fikrini ifodalashga odob qoidalariga rioya qilish va yangi ishlammalar yaratish orqali o‘zining ijodiy fikrini ifodalash ko‘nikmalari bilan o‘quvchilarini qurollantiradi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularda to‘g‘ri munosabat, aniq fikrlash va tanqidiy yondashuvlarni tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalalar bo‘yicha gumanitar o‘quv fanlarining imkoniyatlaridan keng foydalanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tahliliy fikrlashga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kretisizm ko‘nikmasini shakllantirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri ularni tahliliy fikrlashga o‘rgatishdir. Tahliliy fikrlash – bu ma’lumotlarni to‘g‘ri idrok etish, ulardagi muammolarni aniqlash va buning natijasida keltingan hulosani bayon etishdir. Tahliliy fikrlash uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiy-empirik xususiyatlari rivojlantirib borilishi kerak. Shu ma’noda bu borada quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idrok ko‘nikmasini tarkib toptirish;
- b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tahlil ko‘nikmasini tarkib toptirish;
- c) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini muammoning yechimini topishga o‘rgatish.

Idrok – tirik organizmning ma’lumotlarni qabul qilib qayta ishslash jarayonidir, u organizmga ob’yektiv reallikni aks ettirish va tashqi olamdagи vaziyatlarni baholash imkonini beradi.⁸ Bir so‘z bilan aytganda, idrok – shaxs organizmidagi o‘ziga xos aks ettiruvchi jarayondir va unda ma’lumotlar ko‘zgudagi aksdek o‘z ifodasini topadi. Shu sababli XX asrning o‘rtalarida Amerika Qo‘shma Shtatlarining Bxeovorizm (axloq yo‘nalishi) falsafiy oqimning pedagogik olimlari shaxs idrokini bilihning birlamchi manbai sifatida qabul qilishgan. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida

⁸ Shu manba. 145-бет

muammolar va ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'riliгини idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptirish muhim o'ren tutadi. Buning uchun o'quvchida taqdim etilgan fikr va ma'lumotlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, ularga o'zgacha yondashish va o'z fikriga kelish ko'nikmalarini shakllantirish kerak bo'ladi. Bu murakkab jarayon bo'lib, o'quvchilarning his va tuyg'ularini rivojlantirish vositasida ularning idrok qilish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida organizmnинг rivojlanish jarayonida bo'lganligi uchun idrok ko'nikmasini tarkib toptirish ham tabiiy kechadi. Buning uchun o'quvchilar har xil ma'lumotlar va topshiriqlar to'g'risida mulohaza yuritishga o'rganishi hamda o'zlarining fikrlarini himoya qilishga ko'nikishi kerak bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilar maktab psixologи yordamida o'quvchilarining idrok ko'nikmasini tarkib tptirishi dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz. Bu borada keyingi paytlarda "boshlang'ich ta'limda fiziologiya" kabi yangi o'quv fanlarini ta'sis etish ham muhim turganligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshlang'ich ta'limning rivojlanish jarayoni zamonaviy o'quv fanlarining imkoniyatlaridan uyg'un foydalanishni taqozo etmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining idrok ko'nikmasi rivojlantirish jarayoniga kirgach ularda tahlil ko'nikmasini shakllantirish lozim bo'ladi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilar axborot va ma'lumotlarning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini anglay bilishi, matnni o'qib uning mazmunini to'g'ri tushunishi, fikrlash va huloslash odatlariga ega bo'lishi kerak. Aynan mana shunday yondashuv vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tahlil ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bu borada ayniqsa, Matematika, Informatika kabi aniq fanlarning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, Matematika o'quv fanidan beriladigan misol va masalalar yechimi o'quvchilarda taxlil ko'nikmasini kutilgan darajada tarkib toptirishning muhim omilidir. Shuningdek, mazkur masalada tabiiy fanlar o'qituvchilarining faollashuviga ham extiyoj mavjud. Agar aniq fanlar o'quvchilarni o'ylash va fikrlashga yo'naltirsса, gumanitar fanlar ularni hulosa chiqarish va fikrini ifodalashga yo'naltiradi, huddi shuningdek, tabiiy fanlar o'quvchilarda turli ma'lumotlar va axborotlar bilan

ishlash odatlarini tarkib toptiradi. Umuman tabiiy o‘quv fanlari o‘qituvchilari o‘zlarining o‘qitish metodikasini takomillashtirib borish va bu metodikada o‘quvchilarni tahliliy fikrlashga o‘rgatishga e’tibor berish bo‘yicha yondashuvlarga kelishi dolzarb bo‘lib turibdi. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi tahlil ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, u muammolar qarshisida esankirab qolmaydi va uning bilimlarni o‘zlashtirish harakatlari kuchayadi. Shu sababli tahlil qilish ko‘nikmasi tanqidiy fikrlashni o‘zlashtirishning muhim omili sifatida qabul qilingan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrplash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularni muammoni yechishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun muayyan muammo qo‘yilib, uning ko‘lamni, yechimni topish zaruriyati va ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. O‘quvchilarga turli holat va vaziyatda yuzaga keladigan muammolar yechimini topish topshirig‘i beriladi. Muammolar yechimini topish ishini o‘quvchilar guruhi vositasida yo‘lga qo‘yish kutilgan samarani beradi. Chunki 4-5 nafar o‘quvchi o‘zining indiviudal fikrlari bilan muammo to‘g‘risida aniq yondashuvlarini bayon qildi va ularning umumiyligi ifodasi muammo yechimini topish yo‘llarini ko‘rsatadi. Shu ma’noda tarbiyaviy tadbirlar jarayonida “Zakovat” kabi intellektual o‘yinlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muammolar yechimini topish ko‘nikmalarini tarkib toptirish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday intellektual o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idrok etish, tahlil qilish va muammolar yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini tabiiy ravishda shakllantirish omillari hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tahliliy fikrlashga o‘rgatish muhim xususiyatlarga egadir. Buning uchun ularning idrokini rivojlantirish, fikrlashga o‘rgatish va muammolarga yechim topishga ko‘niktirish muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari aynan ana shularga yo‘naltirilganligi bilan keng imkoniyatlarni beradi. Shu ma’noda o‘quv fanlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va unda “tanqidiy fikrash – bu naqd, ya’ni aniq fikrashdir” tamoyiliga asoslanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xolis munosabatga o‘rgatish.
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kritisizm, ya’ni tanqidiy fikrash

ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun ularni xolis munosabatga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda bu borada quyida-gilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘zgalar fikriga hurmat ruhida tarbiyalash;

b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatish;

d) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fikrini nazorat qilishga ko‘nktirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘zgalar fikriga hurmat ruhida tarbiyalash ularda tanqidiy fikrlashni tarkib toptirishning muhim mexanizmlaridan biridir. O‘zgalar fikri to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’iy nazar hurmatga sazovor hodisa hisoblanadi. Chunki fikr bildirilyaptimi, demak, o‘quvchilarning o‘zligini namoyon qilish jarayoni kechmoqda. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tengdoshlarining, o‘rtoqlarining, o‘qituvchilarning, ota-onalarning, katta yoshlilarning va jamoatchilikning fikriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmasiga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Agar biror kishining fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘linsa, uning fikriga ham huddi shunday munosabatda bo‘linadi. Bu boradagi metodikalarni aniqlash va o‘quvchilarda o‘zgalar fikrini hurmat qilish ko‘nikmasini tarkib toptirishning oson va tabiiy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Umuman mazkur masalalar boshlang‘ich ta‘lim jarayonida tarbiya asoslarini yangilash va takomillashtirib borishi taqozo etadi. Aynan tarbiya vositasida o‘quvchilar o‘zgalar fikrini hurmat qilishga o‘rgatiladi. Bunda “o‘zini hurmat qilgan – o‘zgalarni xurmat qiladi” tamoyiliga asoslanish kutilgan samarani beradi. Texnologik rivojlanish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘zgalar fikriga hurmat ruhida tarbiyalash ularni shaxs sifatida voyaga yetkazishdagi omillardan biri ekanligini unutib bo‘lmaydi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun bugungi kunda vazifalar ko‘lami kengayib va aniqlashib borayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularni ijodkorlikka o‘rgatish ham muhim o‘rin tutadi. Ijod – bu shaxs ongi va hayolidagi g‘oyalarning real ko‘rinishga ega bo‘lgan jarayondir. Shu sababli keyingi paytlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorlik ko‘nikmasini tarkib

toptirish vositasida ularni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Misol uchun, Tasviriy san’at o‘quv fani vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorilk ko‘nikmasini tarkib toptirishning keng imkoniyatlari mavjud. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga erikn mavzuda rasm yoki tasvir chizish topshirig‘i beriladi. Ularning chizgan rasmlari yoki tasvirlari tahlil qilib ko‘rilsa, ijodkorlikning o‘ziga xos ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Ba’zi o‘quvchilar o‘zlarining tuyg‘ulari va fikrlarini aniq ifodalasa, ayrimlari bu borada ko‘nikma yetishmasligini namoyon etadi. Shu sababli bunday vositalarga tayangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodkorlik ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Yoki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bevosita o‘zları tomonidan tayyorlangan sahna ko‘rinishlari vositasi bilan ham ularning ijodkorlik ko‘nikmasini tarkib toptirish mumkin. Buning uchun Tarbiya, Tasviriy san’at, Texnologiya kabi o‘quv fanlarining o‘qituvchilari maxsus va individual yondashuvlarga ega bo‘lishi hamda faollik ko‘rsatishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunda shakli va turidan qat’iy nazar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodkorlik ko‘nikmasiga ega bo‘lishi boshlang‘ich ta’lim odidagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoiti shaxsdan ijodkorlikni taqozo etmoqda. Bunday jamiyat sharoitida ijodkorlik ko‘nikmasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirishi, tarbiyalanishi va o‘zlarining mustaqil hamda ijodiy fikr ko‘nikmasiga ega bo‘lishini ta’minlash dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularda o‘z fikrini nazorat qilish ko‘nikmasini ham tarkib toptirish itaqozo etiladi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi hayoliga kelgan fikrni bildirishga emas, bulki asoslarga ega fikrni ifodalashga odatlanishi lozim. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nisbatan ko‘p so‘zlashga intilishi har qanday fikrni bevosita bildirishga asos bo‘ladi. Bola ko‘p so‘zlashi kerak, lekin uning fikrlashida mantiqiy qoidalar va asoslar mavjud bo‘lishi lozim. Bu ko‘nikma boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan tadrijiy ravishda tarkib toptirib boriladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, iqtidorli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘p hollarda o‘z fikrini nazorat qila oladi. Ayni paytda, nisbatan erka va erkin ulg‘ayotgan


boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z fikrini nazorat qilishga kam e’tibor beradi. Shu sababli mazkur toifa o‘quvchilar bilan fikr nazorati ko‘nikmasi ustida ishlash muhimdir. Bu borada ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining haftalik pedagogik amaliyot imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘quvchilarni o‘z fikrini nazorat qilishga o‘rgatish vazifasi yuklanishi va uni har chorakda samaradorligini aniqlab borish kutilgan samarani beradi. Chunki talabalar o‘quvchilar bilan ishlash jarayoniga qiziqadi va ko‘p hollarda ularda yangicha yondashuvlar mavjud bo‘lishini eslatib o‘tish joiz.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xolis munosabat ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun innovatsion yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kritisizm, ya’ni ijodiy fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirishda ularni tanqidiy yondashuv, tahliliy fikrlash va xolis munosabatga o‘rgatish kutilgan samarani beradi. Buning uchun yangicha ilmiy-amaliy metodikalarga asoslanish muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, 2019 yildan boshlab Chirchiq davlat pedagogika universitetida Pedagogika fanimiz uchun yangi bo‘lgan “Maktab-laboratoriya” tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi. Bu tajriba-sinov maydonchalarida ta’lim va tarbiyaga oid muammolar sinovdan o‘tkazib kelinmoqda.⁹ Shu jihatdan mazkur loyiha doirasida boshlang‘ich ta’lim uchun “Innovatsion boshlang‘ich maktab” tajriba-sinov loyihasi amalga oshirib kelinmoqda. Bunda quyidagicha mexanizmga amal qilinayotganligini eslatib o‘tish joiz:

Mazkur tuzilma vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish mexanizmlariga ham ega bo‘linadi. Chunki guruuhlar ishlab chiqadigan didaktik ta’milot va modellarda asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim, tarbiya hamda fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish birlamchi hisoblanadi. Shu ma’noda bunday mexanizmlardan oqilona foydalanish maqsadgna muvofiq bo‘ladi.

⁹ Xo‘jamqulov U.N. Maktab-laboratoriya, Uslubiy qo‘llanma. – Chirchiq, 2019



1-rasm. “Maktab-laboratoriya” tajriba-sinov maydonchasi asosida “Innovatsion boshlang‘ich maktab” loyihasini amalga oshirish tizimi

Shunday qilib 4K modeli bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish maxsus yondashuvni taqozo etadi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tanqidiy yondashuv, tahliliy fikrlash va xolis munosabatga o‘rgatilishi kutilgan samrani beradi.

1.5. Boshlang‘ich ta’limning yangi funksiyalari va uni rivojlantirishning istiqbolli asoslari

Boshlang‘ich ta’limning yangi funksiyalari to‘g‘risida fikr yuritish va mazkur funksiyalarni idrok etish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda ana shu masalaning tahliliga etiboringizni tortamiz.

Boshlang‘ich ta’lim vazifalari mazmuni. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida boshlang‘ich ta’limni asosiy

vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- a) o‘quvchilarning umumiy savodxonligini tarkib toptirish;
- b) o‘quvchilarni hisob, yozish va chizishga o‘rgatish;
- d) o‘quvchilarni o‘qish malakasini shakllantirish.

Mazkur masalalar Qonunning asosiy yo‘nalishlari sifatida boshlang‘ich ta’limga taqdim etilgan. Bunda o‘quvchilarning umumiy savodxonligi tushunchasi ularning bilim va tarbiyaga olib kirilishini anglatadi. Shuningdek, hisob, yozish va chizishga o‘rgatish o‘quvchilarni gumanitar va tabiiy fanlar asoslari bilan tinishtirishni nazarda tutadi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘qish malakasini shakllantirish boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar jahon boshlang‘ich ta’lim bosqichining va xalqaro ta’lim dasturlarining qoidalariga mos keladi [2]. Bu borada mamlakatimizning mustaqillik yillarida o‘ziga xos tajriba to‘planib, boshlang‘ich ta’lim milliy ta’lim tizimining asosiy bosqichiga aylandi. Ayni paytda, innovatsion jamiyat sharoitida boshlang‘ich ta’limning funksiyalari bo‘yicha yangilanishlar paydo bo‘layotganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’limning yangi funksiyalari. O‘zbekiston Respublikasida 2016 yildan boshlab maktabgacha ta’lim tizimi umumiy o‘rtta ta’limning muhim bosqichiga aylantirildi. Buning natijasida 2019 yili O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, unda maktabgacha ta’limning asosiy vazifalaridan biri tarbiyalanuvchilarga alifboni o‘rgatish va ularni maktabga tayyorlash belgilandi [3]. Buning natijasida boshlang‘ich ta’limning alifbo o‘rgatish funksiyasi amalda maktabgacha ta’lim bosqichiga o‘tkazildi. Shu sababli 2019 yildan boshlab boshlang‘ich ta’limning yangi funksiyalari sifatida quyidagilar tarkib topdi:

- a) o‘quvchilarning bilim olish va tarbiyasini chuqurlashtirish;
- b) o‘quvchilarning layoqatini aniqlash va rivojlantirish;
- d) o‘quvchilarni ta’limning keyingi turlariga tayyorlash.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim olish va tarbiyalash ishlarini chuqurlashtirish ularni aniq, tabiiy hamda gumanitar fanlar yo‘nalishiga asosan mashg‘ulotlarni tashkil etish yo‘lga qo‘yildi. Bunda o‘quvchilarning ixtisoslashuv, ya’ni aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo‘yicha layoqatlariga ko‘ra tarkiblash amaliyoti namoyon

bo'la boshladi. Buning natijasida maktabda boshlang'ich ta'lismayda o'quvchilarning layoqati bo'yicha aniqlash, tashxislash va baholash ishlari tarkib topdi [4]. Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lismayda funksiyalarining tubdan o'zgarib borayotganligini namoyon qiladi. Chunki o'quvchilar boshlang'ich ta'lismayda o'z layoqatlariga ko'ra o'quv fanlari ko'lamini chuqurlashtirilgan tarzda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limdagi o'quvchilarning layoqatini aniqlash va rivojlantirish yangi funksiyasi tarkib topdi. Bu borada PISA, TALIS va PIRLS kabi xalqaro ta'lismayda dasturlarining qoidalari amaliyotga joriy etilmoqda. Shu jihatdan mazkur xalqaro ta'lismayda dasturlarida o'quvchilarning fikrlash, mustaqil xarakat, ijodiylik va amaliy faoliyatga tayyorlanish ko'nkmalarini tarkib toptirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari pedagogik tadqiqotlar ob'yekti sifatida namoyon bo'la boshladi. Ayni paytda, bunday yondashuv boshlang'ich ta'lismayda funksiyasining yangi vazifalaridan biri sifatida tarkib topdi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqatlarini aniqlash va rivojlantirish funksiyasi ularning erta yoshdagagi ta'larning eng muhim bosqichlariga yo'naltirish imkonini beradi. Shu sababli mazkur yangi funksiyasi ijrosi jarayonida oila va "Bolalar ijodiyot markazi"larining vazifalari takomillashtirildi.

Boshlang'ich ta'larning yangi funksiyalaridan biri o'quvchilarini keyingi ta'lismayda turlariga tayyorlashdir. Bu funksiya mamlakatimiz ta'lismayda mutlaqo yangi yondashuv hisoblanadi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'larning quyidagi keyingi bosqichlariga tayyorlanayotgani yangi vazifalarning muhim bo'g'inini tashkil etadi:

- a) umumiy o'rta ta'lismayda maktablariga tayyorlash;
- b) ixtisoslashgan (internat) maxsus ta'lismayda maktablariga tayyorlash;
- d) ijod maktablariga tayyorlash;
- e) Prezident maktablariga tayyorlash.

Mazkur funksiyani amalgalash uchun boshlang'ich ta'lismayda o'ziga xos tarzda ixtisoslashib bormoqda. Buning natijasida o'quv fanlarini korreksiyalash va umumlashtirish, ularni o'qitish metodlarini yangilash va o'qituvchilarning individual yondashuvlariga keng yo'l berish tarkib topdi. Chunki ilgari boshlang'ich sinf

o‘quvchilari faqat umumiy o‘rta ta’limga tayyorlanar edi. Bundan keyin ular ta’limning turli shakllariga tayyorlanishi funksional jihatdan belgilandi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayoniga o‘qituvchilarning ixtisoslashuvi, tashqi mutaxassislarining jalb etilishi va o‘qitishning innovasion vositalariga amal qilish jarayoni yuzaga keldi. Bunday tajriba 2019-2021 o‘quv yilining yakunidan boshlab amaliy natija bera boshlaganligini qayd etish joiz. Chunki ta’lim turlari o‘rtasida boshlang‘ich ta’lim bitiruvchilari bo‘yicha sog‘lom raqobat yuzaga keldi va keng ko‘lamli ta’lim turlari aynan boshlang‘ich ta’lim bosqichi bilan hamkorlik qilishga intila boshladи. Natijada, boshlang‘ich ta’limning o‘qituvchilri va murabbiylari ta’lim beruvchilarning eng muhim bo‘g‘iniga aylanganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Mazkur boshlang‘ich ta’limning yangi vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagilarga amal qilish taqozo etiladi:

- a) oliy boshlang‘ich ta’lim jarayonini yangilash;
- b) boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha xalqaro dasturlar ko‘nikmasigi ega bo‘lgan o‘qituvchilarни tayyorlash;
- d) bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik kategoriyalarini aniq belgilab olish.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi jarayonini yangilashda o‘quv fanlarini jahon ta’lim standartlariga moslashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Milliy mala-kalar ramkasini joriy etish va bo‘lajak o‘qituvchilarни ixtisoslashuviga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi innovasion rivojlanish jarayoni oliv boshlang‘ich ta’lim bosqichini yangilab borishni taqozo etadi. Bugungi kunda oliv boshlang‘ich ta’lim jarayonida professor-o‘qituvchilarning mashg‘ulot olib borishi ustuvor darajada saqlanib qolmoqda. Bu jarayonga boshlang‘ich ta’lim manfaatdorlari, ya’ni ota-onalar, umumiy o‘rta ta’xlim maktablari vakillari va ilmiy-tadqiqot muassasalari mutaxassislarini jalb etish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda Chirchiq davlat pedagogika universitetida tarkib topgan pedagogik ta’lim innovatsion klasteriga asoslanish kutilgan samarani beradi [5]. Bu tizimga ko‘ra, nafaqat o‘quvchilar yoki o‘qituvchilar, balki butun jamoatchilik boshlang‘ich ta’lim jarayonida ishtirok etadi. Shu sababli oliv boshlang‘ich ta’lim jarayonini yangilash amaliy boshlang‘ich ta’limning rivojlanishi

uchun yangi imkoniyatlarni beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan boshlang‘ich ta’limga xalqaro ta’lim dasturlari izchil tadbiq etilmoqda. Shu sababli bu borada xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha mutaxassis o‘qituvchilarni tayyorlash taqozo etiladi. Chunki xalqaro ta’lim dasturlari milliy ta’lim dasturlarining mazmuniga asosan korreksiya qilinishi, ularning talablari milliy qadriyatlarga moslashtirilishi va mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limi jarayoniga tadbiq etishning shakllarini ishlab chiqilishini taqozo etadi. Bu hol xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha maxsus o‘qituvchilar tarkibini shakllantirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Negaki, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha umumiy ko‘nikma berilmoqda. Xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha kasbiy kompetensiyaga ega o‘qituvchilarni tayyorlash kelgusida boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Boshlang‘ich ta’limga oid bu yangi funksiya ilmiy va metodik jihatdan ham tadqiq etishni kun tartiga qo‘yadi. Bunda ayniqsa oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tashkil etilgan Talabalar akademiyasi imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimizda kechayotgan innovatsion rivojlanish jarayoni oliy pedagogik jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kategoriyalarini aniqlashtirib olishni taqozo etmoqda. Mazkur masala bo‘yicha bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining layoqat va ko‘nikmalaridan kelib chiqib ularni aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo‘yicha kategoriiali yondashuv tarzda tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ko‘pchilik talabalar fanlarning mazkur yo‘nalishlari bo‘yicha tabiiy layoqatga ega bo‘lib, bu layoqatlarni maxsus rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oliy boshlang‘ich ta’lim bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bo‘yicha tashxislash va baholash ishlarini amalga oshirish yangi funksional vazifalardan biridir.

E’tibor berilsa, bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning yangi funksiyalari ko‘lami tarkib topgan. Mazkur funksiyalarni tadqiq

etish, ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha nazariy va metodik ishlanmalarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Zero, bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi funksiyalarni idrok etish, ularning muammolarini tadqiq etish va yangi funksiyalarni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tadbiq etishning mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim muassasasi va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim mas’ullarini klaster tizimi vositasida hamkorligini yo‘lga qo‘yish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli bu masalalarni hal etishda ilmiy, nazariy va metodik yondashuvlarga asoslanish dolzarb bo‘lib turibdi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatlari ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida boshlang‘ich ta’limni istiqbolli rivojlantirish vazifalari belgilangan [1]. Bu borada zamonaviy boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning istiqbolli asoslarni aniq belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda diqqatingizni ana shu masalaning eng muhim jihatlariga tortamiz.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning ilmiy istiqbolli asosi. Mamalakatimiz pedagogik olimlari tomonidan boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim istiqbolli asoslari ilmiy-tadqiqotlar vositasida muntazam yaratib kelinmoqda. Bu ilmiy istiqbolli asoslarning tadqiqotlardagi eng muhim yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- a) boshlang‘ich ta’lim nazariyasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirib borish;
- b) boshlang‘ich ta’lim didaktikasini zamonaviy ehtiyojlarga binoan takomillashtirib borish;
- d) boshlang‘ich ta’lim metodikasini texnologik yutuqlar asosida maqbullashtirib borish.

Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilgan va bugungi kunda yanidan yaratilayotgan ilmiy tadqiqotlar majmuiga asosan boshlang‘ich ta’limni ilmiy istiqbolli rivojlantirish asoslari idrok etiladi. Bu yo‘nalishlar bo‘yicha pedagog olimlarimizning yondashuvlarini oliy pedagogik ta’lim jarayonida umumlashtirib borish va ularning yutuqlari asosida zamonaviy boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning ilmiy istiqbolli asoslarni muntazam belgilab borish maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Buning uchun “Talabalar akademiyasi” ishtirokchilari bo‘lgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ana shu masalalarni ilmiy tahlil qilish ishiga jalgan etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bu talabalar guruhi kelgusida boshlang‘ich ta’limning rivojlantirish bo‘yicha ilmiy istiqbolli tadqiqotlarni amalga oshirishi kutilmoqda. Ayni paytda, mazkur jarayonda oliv pedagogik ta’lim muassasalarini tomonidan yaratilayotgan yangi ilmiy tadqiqotlarning xulosa va tavsiyalarini ana shu yo‘nalishlar asosida umumilashtirib borilishi muhim ahamiyatga ega. Bu bilan boshlang‘ich ta’limni zamonaviy darajada ilmiy istiqbolli rivojlantirishning fundamental asoslariga ega bo‘linadi.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning konseptual istiqbolli asosi. Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni zamonaviy rivojlantirishning konseptual istiqbolli asoslari ham pedagogik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ana shu asoslar bo‘yicha ilmiy, nazariy, metodik va amaliy tadqiqotlar ko‘lamni amalga oshirilayotganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Ana shunday asoslardan biri O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi”dir. Konsepsiyaning asosi sifatida boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligi oshirishga qaratilgan yondashuvlar hamda g‘oyalalar belgilangan. Unda boshlang‘ich sinflarda ta’limtarbiya jarayonini tashkil etish, uning sifati va samaradorligini ta’minlashning ilmiy asoslangan g‘oyalari majmui taqdim etilgan. Shu jihatdan konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) boshlang‘ich ta’limning maqsad va vazifalari, mazmuni va mazkur ta’lim bosqichi sifati va samaradorligini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari;
- b) kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini boshlang‘ich ta’limga joriy etish, ushbu ta’lim bosqichini ana shu yondashuvlar asosida yaratiladigan o‘quv-metodik majmular bilan ta’minlash, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish asoslari;

- d) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim darajasini nazorat qilish va baholash, o‘quvchilarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirish,

boshlang‘ich ta’lim jarayonini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etish vositasida yanada istiqbolli rivojlantirish asoslari.

Ushbu konsepsiya asosida zamonaviy boshlang‘ich ta’limni istiqbolli rivojlantirishning muhim omillariga ega bo‘linadi. Chunki bu konseptual asoslar zamonaviy boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalarni kiritish, uning muammolarini yangicha yondashuvlar asosida hal etib borish va mazkur ta’lim bosqichini jamiyat talablaridan kelib chiqgan holda rivojlantirish uchun ijtimoiy-pedagogik omillar vazifasini bajaradi. Shu jihatdan mazkur konsepsiyaga asosan yangi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va ularda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Konsepsiya va uning ijrosi oliy pedagogik ta’lim jarayonida muvofiqlashtirib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda oliy pedagogik ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha professor-o‘qituvchilarining faolligiga ehtiyoj mavjudligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim yutuqlarini xalqaro miqyosda ommalashtirib borish asosi. Mamatlakatimizda keyingi yillar davomida boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘ziga xos yutuqlarga erishilganligini alohida ta’kidlash lozim. Bunday yutuqlarni xalqaro miqyosda ommalashtirib borish bilan boshlang‘ich ta’limni zamonaviy rivojlantirishning ijtimoiy omillariga ega bo‘linadi. Shu jihatdan mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonining eng muhim yutuqlari quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda:

a) boshlang‘ich ta’lim vazifalarining takomillashib borayotganligi va bu vazifalarning ko‘lamini belgilashda hamda ijrosini ta’milashda xalqaro ta’lim dasturlari qoidalari hamda talablariga asoslanayotganligi;

b) boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari bo‘yicha xalqaro ta’lim talablariga javob beradigan darsliklarning ishlab chiqilganligi va amaliyotga joriy etilayotganligi;

d) boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarining bilimi, mustaqil va ijodiy fikrashi hamda ularni faoliyatga tayyorlash ko‘nikmalarini tarkib toptirishga ustuvor darajada ahamiyat berilayotganligi.

Ushbu yutuqlar mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limi rivojlanishida zamonaviylik tendensiylarining tarkib topganligini namoyon qiladi. Shu sababli ularni xalqaro miqyosda ommalashtirish boshlang‘ich

ta’limni ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim asoslaridan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. Chunki yutuqlarni ommalashtirish xalqaro miqyosdagi va xorijiy mamlakatlarning tajribali pedagoglari tomonidan mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonini baholash ishlari yuzaga keladi. Aynan baholash natijasida boshlang‘ich ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida istiqbolli rivojlantirib borish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Bunda asosiy masala baholashning xalqaro ma’lumotlari asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini belgilab olishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limning yangi funksiyalari uni zamonaviy rivojlantirishning eng muhim istiqbolli asoslarini belgilaydi. Bu asoslar ilmiy, pedagogik va ijtimoiy yo‘nalishlarni berishi bilan ahamiyatga ega. Mazkur masalani oliy pedagogik ta’lim jarayonida muntazam tahlil qilib borish va umumlashtirish ishlarini amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi.

II BOB. BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASIDA YANGILANISHLAR TIZIMI

2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga va ta’limning keyingi bosqichlariga tayyorlash metodikasi

Dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalarida e’tirof etilgan 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish uchun ularda muayyan malakalarni tarkib toptirish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu jihatdan 4K modeli bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini shakllantirishda ularni mustaqil faoliyat va ta’limning keyingi turlariga tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Mazkur masalaning metodikasi tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlash” tushunchasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil faoliyati – bu ularning ta’lim, tarbiya va muayyan faoliyat jarayonida harakat qilish majmuidir. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim va tarbiya jarayonida o‘zlarining mustaqil harakat ko‘nikmasi asosida faoliyat asoslarini o‘zlashtirib, butun faoliyati davomida uni malakaga aylantirish bosqichida bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil faoliyat bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lishi ta’lim va tarbiya jarayonini kuchaytiradi, ularning keyingi ta’lim turlariga tayyoragarlik asoslarini amaliyot bilan bog‘laydi. Bu borada pedagog olimlarning umumiy fikricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim, tarbiya va harakat jihatidan mustaqil faoliyat ko‘nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlash ta’lim, tarbiya va jamiyatning hozirgi talablariga asosan muhim zaruriyat hisoblanadi. Chunki ta’lim va tarbiyaning hozirgi rivojlanish jarayoni hamda jamiyatimizning texnik taraqqiyoti o‘quvchilardan bilim, axloqiy fazilatlar va harakatlar asoslarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishi taqozo etmoqda. Mazkur zaruriyatlar majmuasiga binoan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlash maxsus yondashuvni taqozo etadi. Bu borada pedagogik ilmiy tadqiqotlar va metodik tavsiyalar majmuiga ehtiyoj mavjudligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlash-

ning ahamiyati ularda mustaqil fikrlash, mustaqil xatti-harakat va voqelikka nisbatan mustaqil munosabat bildira olish bilan belgilanadi. Chunki mustaqil fapoliyat ko‘nikmasiga ega o‘quvchi nisbatan muammolarni tez hal qiluvchi, faol va bilimlar majmuini kutilgan darajada o‘zlashtirish imkoniyatlariiga ega bo‘ladi. E’tibor berilsa, aynan mana shu sabablar tufayli xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya, Germaniya, AQSHda imkon qadar o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlashga asosiy e’tibor qaratiladi. Bunday tajribadan kelib chiqib mamlakatimizda ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlashning ahamiyatini idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlash asoslari. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlashda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- a) ta’limiy tayyorlash;
- b) tarbiyaviy tayyorlash;
- d) metodik tayyorlash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limiy jihatdan mustaqil faoliyatga tayyorlashda ularga chuqurlashtirilgan bilim berish, ta’limning keyingi turlariga bilim jihatidan tayyorlash va mustaqil bilim olish ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim bitiruvchisi mustaqil bilim olish ko‘nikmasiga egaligi bilan ta’limning keyingi turlarida faol ishtirot etadi. Shu sababli o‘quv fanlarini o‘qtish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil bilim olish asoslari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyaviy jihatdan mustaqil faoliyatga tayyorlash uchun ularni eng muhim axloqiy fazilatlarga ko‘niktirish, ahloqiy munosabat asoslari bilan tanishtirish va ahloqiy ongini shakllantirish asosiy masalalardan biridir. Axloqiy fazilatlari o‘quvchi o‘z mustaqil faoliyati davomidaerkin va samarali xarakat qiladi. Axloqiy munosabat esa uning shaxsini tartibga soladi. Shuningdek, axloqiy ong o‘quvchilarini ta’lim turlari va jamiyatda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishi uchun asos bo‘ladi. Shu ma’noda tarbiyaviy jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ilmiy va metodik ishlanmalar yaratish dolzarb

bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini metodik jihatdan mustaqil faoliyatga tayyorlashda ulardagi bilim olishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, axloqida uchraydigan illatlarni korreksiyalash va ruhiy ko‘tarinkilikka o‘rgatish muhim amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini maktab psixologiy bilan hamkorlikda o‘quvchilar bilan individual ishlashi kutilgan samarani beradi. Umuman boshlang‘ich ta’lim manfaatdorlari o‘quvchilarini metodik jihatdan mustaqil faoliyatga tayyorlash masalasida o‘zaro hamkorlik qilishi nazariy jihatdan asosiy hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil faoliyatga tayyorlik ko‘rsatkichlarini belgilash. Umumiy o‘rtalim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil faoliyatga tayyorlik ko‘rsatkichlarini baholab borish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun sinflar kesimida amaliy ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilarning mustaqil faoliyatga tayyorlik ko‘rsatkichlarini baholash ishi o‘qituvchilar, sinf rahbari va maktab psixologiy tomonidan amalga oshirilishi muhimdir. Bunda maxsus tazilgan savolhoma asosida sinflar kesimidav muntazam ravishda o‘rganishlar olib borish va olingan ma’lumotlarni tahlil qilish metodik samaradorlikni yuzaga keltiradi. Chunki baholash bu – o‘quvchida shakllangan faoliyat asoslarini o‘rganish va o‘quvchi duch kelayotgan murakkabliklarni hal qilish jarayonidir.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlash metodikasi muhim masalalarni qamrab oladi. Shu sababli bu borada rejali ishlarni amalga oshirish, xorijiy pedagoglarning tajribalaridan foydalanish va ilg‘or o‘qituvchilarning individual uslublarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlash asoslari bilan qurollantirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Zero, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlashning zamонaiy metodikasi asoslarini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu borada oliy pedagogik ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini va “Talabalar akademiyasi” ishtirokchilarining hamkorligini yo‘lga qo‘yish kutilgan samarani beradi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim

muhim o‘rin tutadi. Mazkur ta’limning rivojlanish jarayonida keyingi yillarda zamonaviy tendensiyalar tarkib topdi. Shu jihatdan bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi bosqichlariga tayyorlash omillari tahliliga tortamiz.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mamlakatimiz ta’lim turlarining keyingi bosqichlariga ham tayyorlanishi kerak. Jamiyatimizning innovatsion rivojlanish jarayonida mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limdan keyingi ta’lim turlari ham tarkib topdi va bunday ta’lim turlariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tayyorlash yangi vazifa hisoblanadi. Ana shunday boshlang‘ich ta’limdan keyingi ta’limning quyidagi yangi muassasalari tarkib topganligini eslatib o‘tish joiz:

- a) ixtisoslashgan ta’lim muassasalari;
- b) ijod maktablari;
- d) Prezident maktablari.

Mazkur ta’lim turlariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tayyorlashning nazariy va metodik omillarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu jihatdan bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini quyidiglar asosda tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) umumiy o‘rta ta’lim maktablariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim jihatidan tayyorlash;
- b) ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ko‘nikma jihatidan tayyorlash;
- d) ijod maktablariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini layoqat jihatidan tayyorlash;
- e) Prezident maktablariga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faoliyat jihatidan tayyorlash.

Chunki mazkur ta’lim muassasalari o‘zining xususiyatlariga ega bo‘lib, ana shularga asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tayyorlanishi kerak. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida asosiy e’tibor o‘quv fanlarini o‘zlashtirishga qaratiladi va bu hol boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ushbu ta’lim bosqichiga chuqurlashtirilgan bilim berish bilan tayyorlashi taqozo etadi. Bu borada o‘quvchilarning aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo‘yicha bilim oliqa bo‘lgan qiziqishini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarning jismoniy

va ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqib ta’lim jarayonini amalga oshiradi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari mazkur ta’lim muassasalariga ko‘nikma jihatidan tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ruhiy, ijtimoiy va tarbiyaviy ko‘nikmalarga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida faol ta’lim va tarbiya olish jarayoniga tez moslashadi [3]. Mazkur yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’kidlangan ta’lim muassasalariga tayyorlashda ularning ko‘nikmalarini talab darajasida shakllantirishga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mamlakatimizda ijod maktablari o‘quvchilarning tabiiy, ijodiy va ijodkorlik layoqatlarini rivojlantirish vositasida ta’lim jarayonini amalga oshiradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’limning bu turlariga ijodiy jihatdan tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilarning ijodiy layoqatlarini rivojlantirish, ularni qiziqish va layoqatlari darajasiga ko‘ra yo‘naltirib borish muhim ahamiyatga ega. Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv fanlarining barcha turlari bo‘yicha ijodiy layoqat mavjud bo‘ladi va aynan ana shunday yondashuv asosida ular ijod maktablariga tayyorlanishi kutilgan samarani beradi.

Prezident maktablari o‘quvchilarini ijtimoiy faollashtirish asosida ta’lim jarayonini amalga oshiradi. Bunda ularning ijtimoiy ongini shakllantirish, ijtimoiy faolligini tarkib toptirish va ijtimoiy axloqini rivojlantirish bilan o‘ziga xos fuqaro shaxsini tarkib toptirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Prezident maktablariga ijtimoiy jihatdan tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ijtimoiy ko‘nikmaga ega o‘quvchi shaxsida yangilikka intilish, bilimdon bo‘lishga harakat qilish va o‘z layoqatlarini namoyon qilish intilishlari mavjud bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini boshlang‘ich ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlash mutlaqo yangi yondashuvlarni taqozo etadir. Bunda asosiy e’tibor ta’lim turlarining xususiyatlaridan kelib chiqishiga qaratilishi bizningcha, eng muhim yondashuvlardan biridir.

Zero boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash bugungi kundagi boshlang‘ich ta’lim pedagogikasida eng muhim zamonaviy tendensiya va vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida quyidagilarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlashning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish;

- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini amaliy jihatdan tarkib toptirish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’limning keyingi turlariga tayyorlarlik darajasini baholab borish.

Bunday yondashuv mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash bo‘yicha o‘ziga xos tizimga ega bo‘lish imkoniyatlarini beradi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga va ta’limning keyingi bosqichlariga tayyorlash jarayonida ularda 4K modelining kommunikatsiya va kollabaratsiya ko‘nikmalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Chunki o‘quvchilar boshlang‘ich ta’limdan keyingi faoliyatida aynan o‘zga ta’lim sharoitida o‘qiydi va yangi jamoa bilan birga ishlashi taqozo etiladi. Mazkur masala muhim ahamiyatga ega bo‘lib o‘quvchilarning kommunikatsiya va kollabaratsiya ko‘nikmasini chuqurlashtirilgan tarzda tarkib toptirish bilan asoslanadi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyat va ta’limning keyingi bosqichlariga samarali tayyorlashda 4K modelining kommunikatsiya va kollabaratsiya ko‘nikmalari amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tayyorlash metodikasida aks etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2.2. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini turkumlashtirib o‘qitish tajribalari

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini turkumlashtirib o‘qitish o‘quvchilarda muayyan ko‘nikmalarni tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda 4K modeli bo‘yicha kreativlik va kretisizm ko‘nikmalariga tayangan holda boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini turkumlashtirib o‘qitish metodikasini ishlab chiqish

zaruriyat bo‘lib turibdi. Chunki fanlarni turkumlashtirib o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativlik, ya’ni ijodiy yondashuv va kretisizm, ya’ni tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhim tayanchlardan hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasi. Mamalakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur fanlarning asosiy tarkibini “Musiqa madaniyati”, “Tasviriy san’at”, “Texnologiya”, “Tarbiya”, “Jismoniy tarbiya”, “Atrofimizdag‘ olam” hamda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanlari tashkil etadi. Bu o‘quv fanlari o‘quvchilarning bilim, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tabiiy layoqatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda mazkur fanlarni o‘qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasiga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda quyidagilarga ahamiyat berish kutilgan samarani berishini eslatib o‘tish joiz:

- a) gumanitar fanlarning mavzularini integratsiyalash;
- b) gumanitar fanlarning qo‘shma mashg‘ulotlarini tashkil etish;
- d) gumanitar fanlarning o‘qitish tajribalarini hududlar kesimida ommalashtirish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasini beradi. Unga ko‘ra, gumanitar fanlarning mavzulari o‘zaro bog‘liqlikda tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, “Musiqa madaniyati” va “Tasviriy san’at” o‘quv fanlarining mavzulari o‘zaro integratsiyalanishi kutilgan samarani beradi. Chunki o‘quvchi kuylash, musiqa tinglash, musiqa chalish yoki raqsga tushish kabi xolatlarni rasm tariqasida tasvirlashi bilan ularning bu fanlar bo‘yicha bilimlari chuqurlashadi, mustaqil fikrlash ko‘nikmasi tarkib topadi, ijodiylik va layoqat ko‘nikmalarining tabiiy rivojlanishi yuzaga keladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda gumanitar o‘quv fanlarining mavzularini integratsiyalash, ya’ni o‘zaro bog‘liqlikda tarkib toptirish ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarning qo‘shma mashg‘ulotlarini tashkil etish ham gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasida muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, mazmun va ob‘yekt jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lgan o‘quv fanlarining qo‘shma

mashg‘ulotlarini tashkil etib borish o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini kuchaytirshga xizmat qiladi. Misol uchun, “Texnologiya” hamda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” o‘quv fanlarining qo‘shma mashg‘ulotlarini tashkil etish muhim amaliy samarani beradi. Chunki o‘quvchilar “Texnologiya” o‘quv fani asosida mehnatsevarlik fazilatlarini va mustaqil ishlanmalar ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi, bu ko‘nikmalarining tavsifini berish malakasini egallash bo‘yicha “Ona tili va o‘qish savodxonligi” o‘quv fani keng imkoniyatlarni beradi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarning o‘zaro integratsiyasi asosida qo‘shma mashg‘ulotlarni tashkil qilish tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasida mavjud yutuqlarni hududlar kesimida ommalashtirish dolzarb bo‘lib turibdi. Unga ko‘ra, shahar yoki qishloq hududlarida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining gumanitar o‘quv fanlarini o‘qitish bo‘yicha individual tajribalaridan keng jamoatchilikni xabardor qilib borish muhim amaliy ahamiyatga ega. Misol uchun, kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq hududlarida “Tasviriy san’at” o‘quv fani bo‘yicha bir qator boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual tajribalari mavjud va bunday tajribalar real imkoniyatlardan oqilona foydalanishga mo‘ljallanganligi bilan e’tiborni tortadi. Shu jihatdan o‘qituvchilar tajribalarini keng ommalashtirib borish boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion qatlamini kuchaytiradi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion takomillashtirish tajribasi amaliyotga yo‘naltilrilganligi bilan e’tiborni tortadi. Bu tajribadan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion uyg‘unlik tajribasi. Bu o‘rinda uyg‘unlik atamasining o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlik ma‘nosiga e’tibor berish lozim [2]. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarni o‘qitishning fanlararo uyg‘unlik tajribasi asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) o‘quv fanlarining mazmunan uyg‘unligi;
- b) o‘quv fanlarining metodik uyg‘unligi;
- d) o‘quv fanlarining amaliy ahamiyat jihatidan uyg‘unligi.

Boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarni o‘qitishning innovation uyg‘unlik tajribasida o‘quv fanlarining mazmunan uyg‘unligi masalasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, gumanitar fanlarning mazmun jihatidan uyg‘unligiga asosan o‘qitish muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, “Texnologiya” va “Jismoniy tarbiya” o‘quv fanlari mazmunan uyg‘unlikka ega. Chunki har ikkala fanda ham o‘quvchilarning jismoniy, aqliy va estetik xatti-harakatlariga asoslangan holda mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Shu jihatdan mazkur o‘quv fanlarini mazmunan uyg‘unligidan kelib chiqib ularning mashg‘ulotlarini ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitilayotgan gumanitar o‘quv fanlari metodik jihatdan o‘zaro uyg‘unlikka ega. Bunda metodikaning asosiy mohiyatini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim olamiga olib kirish va ularda o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish tashkil qiladi [3]. Ayni paytda, muayyan gumanitar fanlar metodik jihatdan o‘zaro uyg‘unlikda o‘qitilishi boshldang‘ich ta’lim sifatini kuchaytiradi. Misol uchun, “Musiqa madaniyati” va “Tasviriy san’at” o‘quv fanlari metodik jihatdan uyg‘un lib, bunda ijod uslubi ustuvor hisoblanadi. Shu sababli mazkur fanlarning mashg‘ulotlarini metodik uyg‘unlikda tashkil etish va amalga oshirish o‘quvchilarning ijodkorlik va layoqatlik ko‘nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi. Bunday tajriba amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilarimizning individual yondashuvlarida mavjud ekanligini eslatib o‘tish joiz.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qitilayotgan gumanitar o‘quv fanlari amaliy jihatdan o‘zaro uyg‘unlikka ega. Ayni paytda, o‘quv fanlarining metodik yaqinligi asosida amaliy jihatdan o‘zaro uyg‘unlikda o‘qitish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, “Musiqa madaniyati” va “Tasviriy san’at” o‘quv fanlari amaliy jihatdan o‘zaro uyg‘unlikka ega, shuningdek, “Texnologiya” va “Jismoniy tarbiya” o‘quv fanlari ham amaliy asoslarga ko‘ra o‘zaro hamkor va uyg‘un usullarga tayanadi, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” o‘quv fanining o‘zida amaliy jihatdan uyg‘unlik mavjud, ya’ni o‘quvchi bunda ona tili va nutq asoslarini o‘zlashtiradi hamda ularni o‘qib tahlil qilish ko‘nikmasi bitlan uyg‘unlashgtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda o‘quv

fanlarining o‘zaro uyg‘unlik xususiyatlariga asosan mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini kuchaytirshga xizmat qiladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion uyg‘unlik tajribasi muhim asoslarga ega. Mazkur asoslarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish boshlang‘ich ta’limda innovatsion rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion yondashuv tajribasi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion yondashuv tajribasi o‘ziga xos tarzda tarkib topgan. Mazkur tajribaning asosiyлari quyidagilardan iborat:

- a) milliy yondashuv tajribasi;
- b) xorijiy yondashuv tajribasi;
- d) individual yondashuv tajribasi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion yondashuv tajribasida milliy yondashuv muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, mamlakatimizda gumanitar fanlarni boshlang‘ich ta’limda milliy yondashuv tajribasi mavjud. Bu tajriba asosini gumanitar fanlarning xalqimiz milliy qadriyatlariga asoslanganligi tashkil etadi. Shu jihatdan milliy yondashuv tajribasi gumanitar fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Misol uchun, “Texnologiya” o‘quv fani asosida o‘quvchilarning mehnatsevarlik fazilatlari xalqimizning o‘ziga xos qadriyati sifatida shakllantiriladi. Buning natijasida o‘quvchilar halol mehnat qilish, halol mulkga ega bo‘lish va mehnat tufayli farovon yashash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Shu sababli bunday milliy yondashuvlar tajribasidan foydalangan holda boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarini o‘qitishni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoniga xorijiy yondashuvlarning joriy etilayotganligi ham innovatsion omillardan hisoblanadi. Misol uchun, Finlandiya boshlang‘ich ta’lim tajribasiga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn tahlilidan so‘z turkumlari qoidalarini o‘rganishga o‘tish tajribasi mavjud [4]. Unda o‘quvchilarga kichik matnlar taqdim qilinadi va muayyan so‘z turkumlariga mansub so‘zlarni topish vazifasi beriladi. Bu

jarayonda o‘quvchi fikrlaydi, matnni mustaqil tahlil qiladi va berilgan vazifani individual tarzda bajaradi. Shu tariqa o‘quvchida so‘z turkumlari bo‘yicha tabiiy o‘zlashmalar tarkib topadi. Bunday xorijiy yondashuvlardan foydalanish boshlang‘ich ta’lim safatini oshirishning innovatsion omillaridan hisoblanadi.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchilarining o‘ziga xos individual yondashuvlari va oliv pedagogik ta’lim jarayonida professor-o‘qituvchilarining o‘z tajribalariga tayangan yondashuvlari mavjud. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarni o‘qitishning individual yondashuvlaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish qulayligi bilan diqqatni tortadi. Chunki individual yondashuvlar yillar davomida amaliy tajribadan o‘tgan xususiyatga ega bo‘ladi. Shu sababli bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘qitishdagi individual yondashuvlarini chuqr o‘rganish va umumillashtirish, ulardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limda gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion yondashuv tajribasi muhim xususiyatlarga ega bo‘lib, u boshlang‘ich ta’limni yangicha uslublar va usullar asosida takomillashtirib borish imkonini beradi.

Zero, boshlang‘ich ta’lim jarayonida gumanitar fanlarni o‘qitishning innovatsion tajribalarini o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunday innovatsion tajribalarning eng muhimlari takomillashtirish tajribasi, uyg‘unlashtirish tajribasi va yondashuv tajribasidan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida mazkur masalalarni ilmiy, nazariry va metodik jihatdan chuqr tadqiq etish taqozo etiladi.

O‘zbekistonning hozirgi yangi taraqqiyoti davrida boshlang‘ich ta’limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” da sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifasi qo‘yilgan [1]. Boshlang‘ich ta’limning sifat ko‘rsatkichlarining yuksalishi avvalo o‘qitish jarayonini rivojlantirishga bog‘liqdir. Shu jihatdan bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlari masalasi tahliliga tortamiz.

Boshlang‘ich ta’limda aniq fanlarni o‘qitishning istiqbolli

yo‘nalishlari. Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida Matematika o‘quv fani aniq fanlarning negizi sifatida o‘qitilmoqda. Shu jihatdan mazkur o‘quv fanini o‘qitish tajribasidan kelib chiqib, uning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, bunday yondashuvlarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- a) jahon mamlakatlari boshlang‘ich ta’limja amal qilayotgan Matematika o‘quv fani dasturlarining eng o‘ziga xos yutuqlarini qabul qilish;
- b) Matematika o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilarining layoqatini xalqaro ta’lim dasturlari asosida rivojlantirish bilan o‘qitish sifqatiga erishish;
- d) iqtidorli o‘quvchilarini xalqaro matematika olimpiadalarga tayyorlash.

Mazkur yo‘nalishlarga asoslanish boshlang‘ich ta’limda Matematika o‘quv fanini o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlariga ega bo‘lishga olib keladi. Shu jihatdan Yevropa va Osiyo mamlakatlari boshlang‘ich ta’lim jarayonida amal qilayotgan ushbu fan bo‘yicha o‘quv dasturlarini o‘rganish va ularning eng muhim yutuqlarini mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim dasturlariga singdirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki mazkur mamlakatlar uzoq yillardan buyon o‘zaro tajriba almashish vositasida bu fanning mukammal o‘quv dasturlarini tuzishga muvaffaq bo‘lishgan.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida Matematika o‘quv fanining o‘qitishdagi istiqbolli yo‘nalishlardan biri xalqaro ta’lim dasturlari asosida o‘qitish sifatini oshirishdir. Misol uchun, bu borada TIMSS, PISA va STEAM xalqaro ta’lim dasturlarining qoidalari o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda va mazkur fanni o‘qitishning amaliy imkoniyatlariga ega bo‘lishda muhim ahamiyatga ega [3]. Bu borada boshlangan ishlar tizimli ravishda davom ettirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda Matematika o‘quv fanini o‘qitishning navbatdagi istiqbolli yo‘nalishlaridan biri iqtidorli o‘quvchilarini mazkur fan bo‘yicha xalqaro olimpiadalarga tayyorlashdir. Chunki o‘quvchilarini xalqaro olimpiadalarga tayyorlash jarayonida ularning matematik layoqati, bilimi va ko‘nikmalari ustida individual ishlanadi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mazkur fan

asoslarini amaliy jihatdan o‘zlashtirishi tabiiy kechadi.

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlari. Mamalkatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida tabiiy fanlarni (sobiq Atrofimizdagi olam va Tabiatshunoslik fanlarini) o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlari tarkib topib bormoqda. Avvalo bu jarayonda umumiy o‘rtta ta’lim maktabida o‘qitiladigan tabiiy fanlarning negizini dastlabki bosqichda boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qitish belgilab olindi. Ayni paytda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida tabiiy fanlarni o‘qitishning quyidagi istiqbolli yo‘nalishlarini amaliyotga joriy etish dolzarb bo‘lib turibdi:

a) boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar bo‘yicha laboratoriya ishlarini kuchaytirish;

b) boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar bo‘yicha tabiat va atrof-muhit vositasida o‘quvchilarining bilimini chuqurlashtirish;

d) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘zi istiqomat qilayotgan hududning tabiatni kuzatib borishga o‘rgatish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarini uyg‘un tarkib toptirish imkonini beradi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim jarayonida tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarining imkoniyatlariga mos ravishda turli laboratoriya ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki laboratoriya ishi topshirig‘ini bajarish jarayonida o‘quvchilar izlanadi, darsliklardan ma’lumotlarni topadi, tahlil qiladi va o‘zlarining tushunchalarini topshiriq shaklida taqdim etadi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish jarayoni kuchayadi.

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarini tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish mazkur fanlarni o‘qitishning eng muhim istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Chunki o‘quvchilar bunda jonli va jonsiz tabiat, atrof-muhit va uning xususiyatlarini o‘z ko‘zlarini bilan ko‘rib, tasavvur hosil qiladilar. Natijada o‘quvchilarining mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlari chuqurlashadi va ular tasavvur vositasida amaliy ko‘nikmaga aylana boradi. Shu sababli o‘tgan asrning 80-90- yillarida mazkur o‘qitishning tabiiy shaklidan keng foydalangan edi. Bugungi kunda ham mazkur tajribani qaytadan tiklash muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limi jarayonida o‘quvchilarini

tabiatni o‘rganishga yo‘naltirish, tabiiy fanlarni o‘qitishning muhim amaliy va istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Chunki bu bilan o‘quvchilar tabiat bilan amaliy munosabatga kirishadi va o‘zlarining tushunchalarini aniq ko‘rinishlar shaklida namoyon qiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari gerbariy yig‘ish, fasllarni kuzatish daftarini yuritish va o‘zi istiqomat qilayotgan atrof-muhitni o‘rganib borish kabi ko‘nikmalarga ko‘niktirilishi muhim ahamiyatga ega. Bu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar asoslarini amaliyot bilan bog‘liq holda o‘zlashtirish jarayoni tarkib topadi.

Boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlarni istiqbolli o‘qitish tizimi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida aniq va tabiiy fanlarni istiqbolli o‘qitish tizimi muntazam takomillashtirib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun mazkur tizimning eng muhimlarini quyidagilar tashkil etishini eslatib o‘tish joiz:

- a) maktab hisobidagi soatlar asosida aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha qo‘srimcha mashg‘ulotlar tashkil qilish;
- b) to‘garaklar va sayohatlar imkoniyatlaridan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish;
- d) boshlang‘ich ta’limda nazariya va amaliyot uyg‘unligi ko‘nikmasi bilan qurollangan o‘qituvchilar bilan ta’minalashni kuchaytirib borish.

Bu tizim asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishni istiqbolli ravishda rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda qo‘srimcha mashg‘ulotlar tashkil etish, to‘garaklar va sayohatlar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolishi kerak. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim jarayonini aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha nazariy hamda amaliy ko‘nikmaga ega o‘qituvchilar bilan ta’minalashni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oliv pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitishning aniq istiqbolli yo‘nalishlariga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Zero boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos istiqbolli yo‘nalishlari mavjud. Mavjud yo‘nalishlar moddiy-moliyaviy sarf-xarajatlar talab qilmasligi bilan ahamiyatga egadir. Shu sababli bu borada maqsadli tadbirlarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi.

E'tibor berilsa boshlang'ich ta'lurma o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish tajribasi va uni rivojlantirish asoslarida 4K modeli bo'yicha ijodiy yondashuv va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga tayanish muhim samarani beradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida aynan ijodiy yondashish va tanqidiy fikrlash vositasida nazariy bilimlar hamda malakalarni egallaydi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish tajribalari va ularni rivojlantirishning istiqbolli asoslarida 4K modeli bo'yicha kreativlik va kretisizm ko'nikmalar muhim o'rinni tutadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur ko'nikmalar bilan qurollantirilishi metodik jihatdan samarador hisoblanadi.

2.3. Boshlang'ich ta'lurma psixologik xizmat amaliyoti

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha kommunikatsiya, kollabaratsiya, kreativlik va kretisizm ko'nikmalariga ega bo'lishi boshlang'ich ta'lurma psixologik xizmat amaliyoti jarayonini kuchaytiradi. Bu o'rinda ana shu masalaning tahviliga e'tiboringizni tortamiz.

Psixologik xizmatning individual yondashuv innovatsion mexanizmi. Bugungi kunga qadar mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan individual ishlashning turli shakllari va vositalariga amal qilib kelinmoqda. Ammo boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nisbatan ko'p miqdorda ekanligi individual ishlash jarayonini murakkablashtirishi sir emas [2]. Shu ma'noda har bir o'quvchi bilan individual tarzda psixologik xizmatni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi va buning uchun muayyan mexanizmlarni ishlab chiqish taqozo etiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lurma psixologik xizmatning individual yondashuv innovatsion mexanizmiga amal qilish uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) har bir boshlang'ich sinf o'quvchisining "Psixologik xaritasi" daftarinini yuritish;

b) mazkur xaritada o‘quvchining ruhiy xususiyatlari, ruhiy rivojlanishi ko‘rsatkichlari, ruhiy kechinmaklari va taassurotlarining qayd etib borilishini ta’minlash;

d) ushbu xarita asosida har oyda bir marotaba o‘quvchilar bilan individual suhbat o‘tkazish va olingan psixologik ma’lumotlarni qayd etib borish;

e) bu xarita asosida har bir o‘quvchining psixologik yetukligini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi tadbirlarni amalga oshirib borish.

Bunday “Psixologik xarita” boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har biriga individual tarzda psixologik xizmat ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bu borada bugungi kunda maktab psixologlari umumsinflar kesimida tadbirlarni amalga oshirmoqda. Endigi maqsadimiz psixologik xizmatni individual tarzda tashkil etish bo‘lishi kerak.

Psixologik xizmatning texnologik yondashuv innovatsion mexanizmi. Boshlang‘ich ta’limda psixologik xizmatni tashkil etishning innovatsion mexanizmlaridan biri bu – texnologik yondashuvdir. Unga ko‘ra, kompyuter, elektron resurslar, TV kabi o‘quv texnik vositalari asosida tayyorlangan maxsus dasturlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida psixologik yetuklikni ta’minlashni amalga oshirish kutilgan samarani beradi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) maxsus dastur asosida “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida psixologik yetuklikni ta’minlashning masofaviy metodikasi”ni ishlab chiqish;

b) bu metodikada o‘quvchilarda psixologik yetuklikni ta’minlashga doir metodik va amaliy tavsiyalar, ko‘rsatmalar, laboratoriya ishlari, yondashuvlar mezonlari va ularning samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlarni joylashtirish;

d) ushbu metodikaga asosan masofadan turib hamkorlik asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida psixologik yetuklikni ta’minlash bo‘yicha o‘qituvchilar va maktab jamoasi bilan tadbirlarni amalga oshirish;

e) ushbu metodika asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida psixologik yetuklikni ta’minlash bo‘yicha ma’lumotlar bankini yangilab borish va ularning samaradorligi bo‘yicha monitoringni amalga oshirish.

Diqqat qilinsa, mazkur texnologik yondashuv mexanizmi turli hududlarda faoliyat yuritayotgan professional psixologlar bilan hamkorlikda mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida psixologik yetuklikni ta’minalash bo‘yicha muhim imkoniyatlarni beradi. Shu sababli bu jarayonda o‘quvchilarining psixologik yetukligini ta’minalash nazariy, metodik va amaliy jihatdan samarador hisoblanadi. Ayni paytda, bu bilan maktab psixologlarining faoliyat imkoniyatlari kengayadi. Chunki hamkorlik mexanizmiga asoslangan texnologik yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan va istalmagan psixologik muammolarni o‘z vaqtida hamda tezkor bartaraf etish bo‘yicha muhitni tarkib toptiradi.

Boshlang‘ich ta’limda sayyor psixologik xizmat innovatsion mexanizmi. Jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida barcha sohalarda sayyor tadbirlarning amalga oshirilishi muayyan muammolarni samarali hal etish imkonini bermoqda. Shu jihatdan oliv pedagogik ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tajribali psixolog mutaxassislarning shu oliv ta’lim muassasasiga biriktirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida psixologik tadriblarni o‘tkazishga yo‘naltirish muhim omillardan biridir. Bunday sayr psixologik xizmatlar jarayonida quyidagilarda amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) oliv pedagogik ta’lim muassasalarining psixolog mutaxassislari tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ruhiy rivojlanishi va ularning imkoniyatlarini aniqlash;

b) mazkur toifa mutaxassislar ishtirokida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan psixologik treninglar o‘tkazish va ularning natijalarini tahlil qilish hamda baholash;

c) bu mutaxassislarning biriktirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga psixologik va metodik tavsiyalarini tashkil etish;

d) ruhiy rivojlanish va murakkab ruhiy xususiyatlarga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ushbu mutaxassislarga biriktirib qo‘yish.

E’tibor berilsa, mazkur innovatsion mexanizm boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga psixologik yetuklikni ta’minalashning muhim omillari mavjud. Shu sababli bu kabi innovatsion mexanizmlardan foydalanish jamiyatimizning ehtiyojlari vositasida boshlang‘ich

sinf o‘quvchilarini psixologik yetuklashtirish imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’limda psixologik xizmatni tashkil etishning mazkur innovatsion mexanizmlari metodikasini nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Shuningdek, oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ham boshlang‘ich ta’limda psixologik xizmatning innovatsion shakllari, vositalari va mexanizmlari bilan qurollantirish dolzarb hisoblanadi. Shu ma’noda bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyat jarayonida pedagog, psixolog va sotsiolog sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishi bugungi kunning eng muhim ehtiyojlaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’limda psixologik xizmatni tashkil etishning innovatsion asoslari bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotchilikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Bunda oliv pedagogik ta’lim jarayonida “Talabalar Akademiyasi” ishtirokchilarining imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Chunki mazkur Akademiya ishtirokchilari psixologik xizmatning innovatsion shakllari bo‘yicha yangi va zamonaviy ishlamalarini yaratish imkoniyatlariga ega ekanligini alohida ta’ki dlab o‘tish lozim.

Zero, boshlang‘ich ta’limda psixologik xizmatning innovatsion mexanizmlari keng omillar va imkoniyatlarga egaligi bilan diqqatga sazovor. Mazkur asoslarga tayangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida psixologik yetuklikni kutilgan darajada ta’minalash muhim ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga doir Davlat dasturida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining voyaga yetish jarayonini takomillashtirish va o‘qitish jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy etish vazifalari qo‘yilgan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida psixologik yetuklikni ta’minalash orqali ularning voyaga yetish jarayonini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Psixologik yetuklik – bu shaxsning ruhiy, aqliy va ong jihatidan sog‘lom hamda talab darajasida ko‘nikmalarini tarkib toptirishdan iborat. Bunda psixologik yetuklik shaxsning ruhiy fazilatlari sifatida

omil vazifasini bajaradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida psixologik yetuklikni ta’minalash uchun quyidagi usullarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

O‘quvchilarning ruhiy holatini aniqlash usuli. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar har xil oilada yoki maxsus ta’lim muassasalarida voyaga yetayotganligi uchun ruhiy holat bo‘yicha turli darajalarda bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va maktab psixologik hamkorlikda har bir o‘quvchining ruhiy holatini aniqlab olishi ularni voyaga yetkazishning muhim omillaridan biridir. Bunda o‘quvchining ruhiyat darajasi, qiziqishi va murakkab vaziyatlarda o‘zini tutishi kabi masalalar o‘rganiladi. O‘rganish jarayonida suhbat, o‘quvchining fikrini tinglash kabi psixologik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bu vositalar bevosita o‘quvchining ruhiy holati va darajasi to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni beradi. Eslatib o‘tish joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har kuni turli ruhiy holatlarda bo‘ladi. Shu sababli ularning ruhiy holatlari muntazam kuzatib borilishi kutilgan samarani beradi.

O‘quvchilarning ruhiy ko‘tarinkilikni ta’minalash usuli. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh va jismoniy xususiyatlarga mos ravishda ta’lim va tarbiya jarayonida turli ruhiy kechinmalarda bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida turli darajadagi ruhiy ko‘tarinkilik mavjud bo‘ladi. Ko‘p hollarda murakkab vaziyatlarda ruhiy tushkunlikka tez uchraydi. Bunda ularda o‘z-o‘ziga ishonchsizlik, qiyinchiliklardan cho‘chish yoki o‘zgalarga ishonmaslik kabi tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ruhiy ko‘tarinkilikni ta’minalash va uni ko‘nikmaga aylantirish muhim masalalardan biridir. Buning uchun ularda o‘ziga ishonch, muammolarini o‘zgalar bilan muhokama qilish, o‘qituvchilarga ochiq munosabat bildirish kabi ko‘nikmalarni tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mobil aloqa vositasi, kompyuter texnikasi kabilar orqali turli ma’lumotlarni egallamoqda. Bunday ma’lumotlarning ko‘pchiligi salbiy ruhiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega. Mazkur omildan kelib chiqib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ruhiy ko‘tarinkilik ko‘nikmasini tarkib toptirish zaruriyat hisoblanadi. Aks holda o‘quvchilarida ruhiy tushkunlik illati paydo bo‘ladi va aynan

ruhiy tushkunlik ularning talab darajasida voyaga yetishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarni ruhiy tarbiyalash usuli. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ruhiy tarbiyalash ta'lif va tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Chunki ruhiy tarbiya o'quvchilarni ideal maqsadlar sari yo'naltiradi, murakkab sharoitlardan chiqish yo'llarini o'rgatadi va faoliyatga tayyorlaydi. Aqliy, jismoniy, ahloqiy va estetik tarbiyaning natijasi aynan ruhiy tarbiyada namoyon bo'ladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lif muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ruhiy tarbiya bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirilmoqda. Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lifda ruhiy tarbiyaning zamonaviy usullarini ishlab chiqish ehtiyoji mavjud. Bunda boshlang'ich ta'lifda o'qitilayotgan aniq, tabiiy va gumanitar fanlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ruhiy tarbiyalashning zamonaviy usullarini belgilab qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarni ruhiy yetukligini ta'minlashning manbalarini o'rganish usuli. Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi tarixida va pedagogik ilmiy tadqiqotchiligidan bosholang'ich sinf o'quvchilarini ruhiy yetukligini ta'minlash bo'yicha o'ziga xos qarashlar hamda yondashuvlar mavjud. Bu manbalarda o'quvchilar bilan individual ishslash, ularning ideallarini tarkib toptirish, ularda maqsad-muddaolarni shakllantirish va o'zligiga ishonch kabi vositalar orqali ruhiy yetuklikni ta'minlash masalalari ifodalangan. Misol uchun, Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" qomusiy asari tarkibidagi "Najot" risolasida shaxsning ruhiy xususiyatlari ota-onadan gen orqali o'tishi alohida tavsif qilib berilgan. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ruhiy yetuklikni ta'minlash uchun ularning oila sharoiti bilan tanishish va shunga asosan tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, Ibn Sino shaxsning ruhiyatini tarbiyalash bilan rivojlantirish va takomillashtirish mumkinligini alohida ta'kidlab o'tadi. Bunday manbalarni o'rganish vositasida ruhiy yetuklikning asoslarini aniqlab olish mumkin. Shu ma'noda bugungi kunda psixoanaliz, neyropsixologiya, analitikpsixologiya, fredizm, geshtapsixologiya, ekstropsixologik kabi psixologik matablarning tadqiqotlarini o'rganish ham o'quvchilarda psixologik yetuklikni ta'minlashning keng imkoniyatlarini beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ruhiy yetuklikni ta'minlashning o'ziga xos usullari mavjud. Mazkur usullar oliv pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'rgatilishi hamda o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari vositasida amaliy faoliyat-dagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ruhiy tarbiya bo'yicha malakalarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida psixologik yetuklikni ta'minlashda maktab jamoasining imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lif makteblari imkoniyatlar jihatidan quyidagi umumiylikka ega:

a) kompyuterli texnologiyaning mavjudligi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida psixologik yetuklikni ta'minlash bo'yicha tegishla adabiyotlar, ma'lumotlar, psixologik-metodik tavsiyalar, muloqot asoslari va real sharoitdan kelib chiqish imkoniyatlari to'g'risida tavsiyalar majmuuni olish mumkin bo'ladi;

b) umumta'lif makteblarida texnik jihozlanishning zamonaviyiligi. Mazkur jihozlanish jarayoni o'quv-texnik vositalardan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida psixologik yetuklikni ta'minlash bo'yicha kuzatuv-nazorat, laboratoriya ishlari va tahlillar jarayonini amalga oshirish imkoniyatlarini beradi;

d) maktab jamoasining bevosita mutaxassislar bilan ishslash imkoniyatiga egaligi. Mamlakatimizda mobil aloqa vositasi, raqamli texnologiya, elektron ta'lif resurslari kabi texnologiyalar rivojlanib borgan sari bevosita mohir mutaxassislar bilan bog'lanish va hamkorlikda ishslash imkoniyatlari kengayib bormoqda, shu jihatdan joylarda faoliyat ko'rsatayotgan mohir psixologlarni mazkur imkoniyatlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida psixologik yetuklikni ta'minlash ishiga jalb qilib maqsadga muvofiq bo'ladi;

e) hududlarda psixologik mutaxassislarining yetarligi. Bu omil hududlarda faoliyat yuritayotgan psixolog mutaxassislar jamoasining amaliy ishtiroki va metodik tavsiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida psixologik yetuklikni ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlarni beradi, buning natijasida har bir o'quvchida individual yondashuv asosida psixologik yetuklikni ta'minlashning omillariga ega bo'linadi.

Diqqat qilinsa, psixologik yetuklikni ta'minlashning bunday

o‘quv-texnik, texnologik va hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Zero boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bugungi kun talablari darajasida voyaga yetishida psixologik yetuklik omili muhim ahamiyatga ega. Mazkur masala bo‘yicha ilmiy va metodik tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’limda psixologik xizmat amaliyotidan oqilona foydalanish uchun o‘quvchilarining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhim o‘rin tutadi. Chunki mazkur ko‘nikmalarda ta’lim sharoitidan foydalanish ruhiyati, jamoa bilan ishlash ruhiyati, ijodiy yondashish ruhiyati va tanqidiy fikrlash ruhiyati mavjud bo‘lib, ular vositasida maktab psixologik xizmatidan foydalangan holda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’limda psixologik xizmat amaliyotidan foydalanish vositasida uni rivojlantirish mexanizmlariga ega bo‘lishi uchun o‘quvchilarining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalari bilan qurollangan bo‘lishi muhim o‘rin tutadi. Bu bilan psixologik xizmat amaliyotining ruhiy asoslaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

III BO‘LIM. BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI

3.1. Boshlang‘ich ta’lim metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyadan foydalanish masalasi

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ta’limga oid vazifalari ijrosi jarayonida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qitishning turli shakllari, vositalari va metodlaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi bugungi ehtiyojlarning hosilasidir. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Raqamli texnologiya mazmuni. Pedagogika fanida o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish tajribasi yuzaga kelgan. Bunda asosiy e’tibor o‘qitish mazmunini yangilash, qulay vositalardan foydalanish va o‘zlashtirish metodikasini takomillashtirishga qaratilganligini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda raqamli texnologiya mazmunida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- 1) kompyuter o‘quv-texnik vositasiga tayangan o‘qitish va o‘zlashtirish materiallarini tayyorlash;
- 2) o‘qitishning axborot-kommunikatsion didaktik ta’minotini ishlab chiqish;
- 3) o‘qitish jarayonida mavjud texnik imkoniyatlardan oqilona foydalanish;
- 4) ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning o‘quv-texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish.

Mazkur asoslar raqamli texnologiya mazmunini tashkil etadi. Bunda raqamli tushunchasini o‘quv materiallarini kompyuterli dastur asosida tayyorlash va uzatish nazarda tutilishini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli keyingi paytlarda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad ta’lim tizimida sifatli ko‘rsatkichlarga erishish va o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’limda qo‘llanishi lozim bo‘lgan raqamli

texnologiyalarning bir necha turlari mavjud. Bu borada raqamli texnologiyalarning eng asosiy quyidagi turlarini eslatib o'tish joiz:

- 1) kompyuterli dasturga asoslangan o'qitish raqamli texnologiyasi;
- 2) elektron-modulli texnologiya;
- 3) masofaviy ta'lif texnologiyasi;
- 4) mustaqil ta'lif texnologiyasi;
- 5) individual yondashguv texnologiyasi;
- 6) internet ta'limi texnologiyasi;
- 7) milliy portallar texnologiyasi;
- 8) mohir pedagoglarning shaxsiy texnologiyasi.

Mazkur raqamli texnologiyalar turlaridan maktab muhiti va imkoniyatlariga asosan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta'minlangan. Shu sababli boshlang'ich ta'limda kompyuterli dasturga asoslangan o'qitishning raqamli texnologiyasidan foydalanish qiziqarliligi, tezkorligi va samaradorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak bo'ladi:

- a) mavzularning kompyuterli variantlarini tayyorlash;
- b) kompyuterli variantlarni o'quvchilarga taqdim etish va ulardan foydalanish bo'yicha mexanizmlarini yaratish;
- c) virtual aloqa vositasida o'quvchilarga tegishli mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish;
- d) tayyorlangan o'quv materiallarini animatsion va multimediyali tasvirlarga boy tarzda taqdim etish;
- e) o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish metodikasini belgilab qo'yish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarning o'ziga xos imkoniyatlaridan biri o'quv materiallarini yangilab borish mavjudligidir. Shu sababli keyingi paytlarda ta'limning barcha turlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga asosiys e'tibor qaratilmoqda.

2023-2024 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflarda Informatika fani o'qitila boshlandi. Bu o'quv fani o'quvchilarning kompyuter savodxonligi, ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasi

va texnik vositalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Shu sababli mazkur fanni o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish mahorati bo‘yicha qo‘srimcha mashg‘ulotlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyati. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday ahamiyatning asosiyları quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim olishga qiziqtirish;
- 2) o‘quv materiallarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos ravishda turli vositalar asosida tayyorlash;
- 3) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘qituvchi kitobi uchun yangi metodik tavsiyalarni taqdim etish;
- 4) boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayonini yangilab borish;
- 5) o‘qitish jarayoniga xorijiy mamlaktlarning tajribalarini joriy etish;
- 6) mahoratli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual tajribalarini ommalashtirish;
- 7) boshlang‘ich ta’lim sifatini raqamli texnologiyalar asosida yuksaltirish.

Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz:

- a) boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish;
- b) boshlang‘ich ta’limda samara beradigan raqamli texnologiyalarini saralash va uning majmuuni amaliyot uchun taqdim etish;
- c) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish;
- e) Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot institutida amaliy faoliyatdagи boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha mahoratini oshirib borish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini tarkib toptiradi.

Zero, boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qitish mazmunini yangilaydi, vaositalarini takomillashtiradi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini kuchaytiradi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarini qo‘llash monitoringini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududlardagi oliy pedagogik ta’lim muassasalariga biriktirilgan. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish kerak.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida 2026 yilga qadar sifatli ta’lim ko‘rsatkichlarini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etib borish vazifalari qo‘yilgan. Shu jihatdan bu borada *boshlang‘ich ta’limni* yangicha yondashuvlar va texnologiyalar asosida rivojlantirib borish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun zamonaviy yondashuvlarga asoslangan yangi yo‘nalishlardagi tadqiqotlar ko‘lamini yuzaga keltirish taqozo etiladi. “Raqamli pedagogika” ana shunday zamonaviy fan asoslaridan biri bo‘lib, uning imkoniyatlaridan boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda foydalanish va mazkur ta’lim bosqichida sifat ko‘rsatkichlari samaradorligiga erishish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur o‘rinda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishda “Raqamli pedagogika” imkoniyatlaridan foydalanish masalasi tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

“Raqamli pedagogika” hozirgi zamon Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u axborot-kommunikatsion va texnik vositalarga asosan ta’lim jarayonini amalga oshirishga asoslanadi. Shu jihatdan mazkur pedagogikaning boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishdagi eng asosiy imkoniyatlari biz tomonimizdan quyidagicha idrok etiladi:

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv adabiyotlarini raqamlashtirish. Boshlang‘ich ta’lim o‘quv adabiyotlari bugungi kunda zamonaviy talablar, milliy tajriba va xorijiy mamlakatlarning tajribalarini uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim muassasalarida yaratilayotgan boshlang‘ich ta’limga oid yangi avlod o‘quv adabiyotlarini maxsus kompyuterli dastur asosida raqamlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun elektron-modulli didaktik ta’minotga asoslanish muhim va kutilgan samarani beradi. Shu ma’noda

oliy pedagogik ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’limga oid yaratilayotgan yangi alod o‘quv adabiyotlarini maxsus kompyuterli dasturda joylashtirish uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

1) oliy pedagogik ta’lim jarayonining boshlang‘ich ta’limga oid eng asosiy o‘quv adabiyotlarining elektron variantlarini yaratish va ulardan masofadan turib foydalanish metodikasini joriy qilish;

2) elektron o‘quv adabiyotlaridan foydalanishning raqamlashirilgan, ya’ni matn, topshiriqlar, savollar, ko‘rsatmalar va tavsiyalarni maxsus raqamlar asosida ifodalash, chunki bu hol o‘quv adabiyotlaridan foydalanishning qulayligiga va osonligini kengaytiradi;

3) oliy pedagogik ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarining individual portallarini tashkil etish va ularda mazkur mutaxassislarining boshlang‘ich ta’lim fanlari kesimida ilmiy, o‘quv va metodik ishlanmalarini joylashtirib borish, ulardan masofadan turib va mustaqil ta’lim vositasida foydalanish bo‘yicha raqamli imkoniyatlarni belgilab qo‘yish;

4) oliy pedagogik ta’lim muassasalariga biriktirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim bosqichlarini qo‘srimcha o‘quv adabiyotlari bilan raqamli texnologiyalar talabalari asosida ta’minlab borishni joriy etish.

Bu ishlarni amalga oshirish “Raqamli pedagogika” imkoniyatlari vositasida boshlang‘ich ta’lim jarayonini kutilgan darajada rivojlanish imkonini beradi.

“Raqamli pedagogika” asoslari bo‘yicha kompetensiyalarini tarkib toptirish. “Raqamli pedagogika” nisbatan yangi fan sifatida tarkib topganligi sababli talabalar va amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mazkur fan asoslari bo‘yicha kompetensiyalarini tarkib toptirish taqozo etiladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, faol bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Internet jahon axborot tarmog‘i vositasida mazkur fan asoslari bo‘yicha umumiy tushunchalarini o‘zlashtirgan. Shu sababli “Raqamli pedagogika” asoslari bo‘yicha talabalar va amaliy faoliyatdagি boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini tarkib toptirish uchun quyidagilarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turaganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

1) oliv pedagogik ta’lim jarayonida pedagogik (majburiy mataxassislik) fanlarini “Raqamli pedagogika” asoslari bo‘yicha mavzular bilan boyitish va ularni o‘qitish vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli pedagogika bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini tarkib toptirish;

2) oliv pedagogik ta’lim muassasalarida “Raqamli pedagogika” maxsus kursini tashkil etish vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mazkur fanning nazariyasi, metodologiyasi va texnologiyalari bilan qurollantirish;

3) Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot institutida “Raqamli pedagogika” maxsus kurs tashkil etish bilan amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini an‘anaviy va masofaviy malaka oshirish kurslari shaklida mazkur pedagogika kompetensiyalarini bilan qurollantirish;

4) iqtidorli talabalarni “Talabalar Akademiyasi” tuzilmasi mashg‘ulotlari vositasida “Raqamli pedagogika” asoslарini amaliy o‘rganishga jalb etish.

Bunday yondashuv mamlakatimiz pedagoglarining “Raqamli pedagogika” asoslari bo‘yicha kompetensiyalarini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi. Bu bilan boshlang‘ich ta’limning sifat ko‘rsatkichlarga erishish ko‘لامи kengayadi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish. “Raqamli pedagogika” mamlakatimiz ta’lim jarayoniga joriy etilayotganligi mazkur fan asoslari bo‘yicha ilmiy, nazariy, fundamental va amaliy tadqiqotchilikni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Bizningcha, mazkur masalada quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish kutilgan samarani beradi:

1) fanning nazariy asoslari, tarixi va manbalari yo‘nalishi ilmiy-tadqiqotchiligi;

2) fanning didaktik, metodologik va texnologiya asoslari yo‘nalishi ilmiy-tadqiqotchiligi;

3) fan bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalari yo‘nalishi ilmiy-tadqiqotchiligi;

4) fanni o‘qitish metodikasi va texnologiyalari yo‘nalishi ilmiy-tadqiqotchiligi.

Mazkur yo‘nalishlarda fan bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish lozim.

“Raqamli pedagogika” fanining mamlakatimizdagi hozirgi holati boshlang‘ich bosqichdadir. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‘ra, mazkur fanning imkoniyatlaridan boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda foydalanish uchun ta’kidlab o‘tilgan yo‘nalishlarda ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirish dolzaob bo‘lib turibdi.

Zero boshlang‘ich ta’lim jarayonining sifatli ko‘rsatkichlarini yuksaltirishda “Raqamli pedagogika” imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy, metodologik va texnologik asoslarini ishlab chiqish taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyadan foydalanish samaradorligi o‘quvchilarning 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Chunki axborot-texnik vositalarga tayangan raqamli texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim sharoitidan oqilona foydalanish, bilim va faoliyatda jamoa bo‘lib ishslash, ta’lim olish va tarbiya jarayonida ijodiy yondashish hamda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishini taqozo etadi. Bu ko‘nikmalar raqamli texnologiyalar sharoitida o‘quvchilarning kutilgan darajada malaka egallashlari uchun tayanch vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar bo‘yicha ta’sis etilayotgan yangi “Raqamli pedagogika” o‘quv fanining asoslarini ishlab chiqishda 4K modeli bo‘yicha ta’lim oluvchilarning ko‘nikmalarini shakkantirish nazarda tutilishi muhim ahamiyatga egadir.

“Raqamli pedagogika” shakkantishi jarayonida umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida raqamli texnologiyalarga asoslangan ta’limni amalga oshirilishi nazarda tutilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli mazkur fan asoslarini yaratishda 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarni tayanch malakalar sifatida qabul qilish bizningcha, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shundas qilib boshlang‘ich ta’lim metodikasini rivojlantirishda 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalar raqamli texnologiyalarning asosi sifatida qabul qilinishi kutilgan samarani beradi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalar vositasida raqamli texnologilar bilan qurollantirilishi kutilgan samarani beradi. Chunki mazkur toifa o‘qituvchilar kelgusi faoliyatida bevosita raqamli texnologiyalarga

asosan ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishi kutilmoqda. Buning uchun o‘quvchilarning 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3.2. Boshlang‘ich ta’lim metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyadan foydalanish shakllari

“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturida mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘qitishning yangi shakllarini joriy etib borish va uning natijalari bo‘yicha monitoring yuritish vazifalari yuritilgan. Shu jihatdan “Raqamli pedagogika” imkoniyatlardan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’limning yangi shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda ayniqsa o‘quvchilarning 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhimdir. Chunki ta’lim va tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ko‘nikma va malaka jihatidan tayyorligiga tayanadi.

Mobil aloqa vositasi ta’lim shakli. Raqamli pedagogik ta’lim axborot-kommunikatsion texnik vositalarga asoslanishi va raqamli texnologiyalarga tayanishi bilan keng imkoniyatga ega. Shu jihatdan mobil aloqa vositasiga asoslangan raqamli ta’lim shaklini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilar butun kechayu kunduz davomida mobil aloqa vositasi bilan munosabatda bo‘lishadi. Bu vositasida internet global jahon tarmog‘i orqali tarqatilayotgan har xil ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Shu sababli mazkur aloqa vositasiga tayangan raqamli pedagogik ta’lim shaklini ishlab chiqish maqsadga muvofiqli.

Raqamli pedagogik ta’limning mobil aloqa vositasi shakli – bu o‘quv materiallari joylashtirilgan maxsus portalga ega o‘qitish jarayonidir. Bunda quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- 1) majburiy va tanlov fanlari o‘quv materiallarining elektron shaklini mobil aloqasi vositasida maxsus sayt orqali joylashtirish;
- 2) o‘quv materiallarida nazariy bilining ixchamligi va

topshiriqlar va vazifalarning ko‘p bo‘lishini ta’minlash;

3) o‘qituvchi tomonidan muayyan mavzu bo‘yicha topshiriq berish va uning natijasini baholash blokini joriy etish;

4) bo‘lajak o‘qituvchilarning berilgan topshiriqlar va vazifalarni o‘zлari ma’qul ko‘rgan vaqt rejimi asosida bajarish imkoniyatlariga ega bo‘lishi.

Raqamli pedagogik ta’limning bu shaklida professor-o‘qituvchi o‘zining shaxsiy mobil aloqa vositasi orqali ta’lim jarayonini tashkil qiladi, kuzatadi va uning natijalarini baholaydi. Shu jihatdan xorijlik pedagog olimlarning “Raqamli pedagogika”da pedagogning ham o‘z vazifalariga ega ekanligi to‘g‘risidagi fikrini unutmaslik lozim.

Mobil aloqa vositasi ta’lim shaklini tashkil etish. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida raqamli pedagogik ta’limning mobil aloqa vositasi shaklini tashkil etish imkoniyatlari mavjudligini eslatib o‘tish joiz. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish taqozo etiladi:

1) o‘quv adabiyotlarining materiallarini mobil aloqa vositasi imkoniyatlariga mos holda tayyorlash;

2) oliy pedagogik ta’lim muassasalarining bosh portalida mobil aloqa vositasi ta’lim shaklini tashkil qilish va nazorat qilish ta’minotini yo‘lga qo‘yish;

3) yaratiladigan yangi avlod o‘quv adabiyotlarining mobil aloqa vositasi ta’lim shakli variantlarini ham ishlab chiqish;

4) professor-o‘qituvchilarning mobil aloqa vositasi ta’lim shakli bo‘yicha faolligini oshirish;

5) bo‘lajak o‘qituvchilarning mobil aloqa vositasi ta’lim shakli bo‘yicha ko‘nikmalarini tarkib toptirish va ularni kelgusida ushbu ta’lim shaklidan oqilona foydalanishga tayyorlash.

Bunday yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli pedagogik ta’lim imkoniyatlaridan foydalangan holda professionallikni oshirish imkonini beradi.

Mobil aloqa vositasi ta’lim shaklining samaradorligi. Xorijiy mamlakatlarning shunday tajribasi mavjudki, unga ko‘ra, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib ta’lim tashkil qilinadi. Shu ma’noda raqamli pedagogik ta’limning ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan mobil aloqa vositasi bo‘lajak o‘qituvchilarning ehtiyoji va qiziqishlarini qoniqtirishi bilan muhim

ahamiyatga ega. Bu o‘rinda ushbu yangi ta’lim shaklining quyidagi samaralarni berishini ta’kidlab o‘tish lozim:

- 1) bo‘lajak o‘qituvchilar mobil aloqa vositasi imkoniyatlaridan ta’lim va tarbiya jarayonida foydalanish ko‘nikmasini egallaydi;
- 2) ta’limning yangi shakliga ega bo‘lish imkoniyatlari paydo bo‘ladi;
- 3) mobil aloqa vositasidan ta’lim jarayonida foydalanishning tajriba va metodikalari shakllanadi;
- 4) mobil aloqa vositasi ta’lim shaklining imkoniyatlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yangi ma‘lumotlar bilan boyitib borish imkoniyatiga ega bo‘linadi;
- 5) ta’lim jarayonida raqamli texnolgiyalardan foydalanishning pedagogik madaniyati shakllanadi.

Bunday yondashuv raqamli pedagogik ta’limning imkoniyatlaridan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda yangiliklar, yondashuvlar va vositalar ko‘lamini kengaytiradi.

E’tibor berilsa, raqamli pedagogik ta’limning mobil aloqa vositasi shakli o‘zining samaradorligi bilan ahamiyatga egadir. Shu sababli bu o‘rinda ana shu yangi ta’lim shaklini idrok etish va u bo‘yicha metodik ishlanmalarni yaratish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, idrok etilayotgan raqamli pedagogik ta’limning mobil aloqa vositasi shakli keng imkoniyatlarni beradi. Sh jihatdan bu yangi ta’lim shaklining quyidagi imkoniyatlarini eslatib o‘tish joiz:

- a) bu yangi ta’lim shakli raqamli texnologiya va pedagogik faoliyatni o‘zaro bog‘laydi;
- b) bu ta’lim shakli ta’lim oluvchilar faoliyatini o‘zgartiradi va ularning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini tarkib toptiradi;
- c) mazkur ta’lim shaklida pedagog tashkil qiluvchi va ta’lim oluvchi esa tashkil etilgan o‘quv jarayoni vositasida texnik vositalarga asoslangan o‘zlashtirish vazifasini bajaradi;
- d) ushbu ta’lim shakli an’anaviy va noan’anaviy ta’lim tajribalaridan uyg‘un foydalangan holda ta’lim berishning mazmunini chuqurlashtiradi.

Mazkur masalalarni idrok etish va ular bo‘yicha oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini

tarkib toptirish muhim ahamiyatga egadir. Shu ma'noda *raqamli pedagogika* – bu o'qitishning raqamli texnologiyalariga asoslangan o'qitish va faoliyatga tayyorlash ta'lif shaklidir, uning turli shakllaridan foydalanish bilan bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib raqamli pedagogik ta'lifning mobil aloqa vositasi shakli bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda keng imkoniyatlarni beradi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish dolzarb ekanligini eslatib o'tish joiz:

- 1) raqamli pedagogik ta'lifning mobil aloqa vositasi ta'lif shakli asoslarini ishlab chiqish;
- 2) mobil aloqa vositasi ta'lif shaklidan foydalanish metodikasini yaratish;
- 3) iqtidorli talabalarni mobil aloqa vositasi ta'lif shakli variantlarini yaratishga jalg qilish;
- 4) mobil aloqa vositasi ta'lif shaklida ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchilarning vazifalari bo'yicha reglamentni belgilab qo'yish.

Bunday yondashuv yangi ta'lif shaklidan oqilona foydalanish tajribasini tarkib toptiradi. Shu jihatdan bizning maqsadimiz axborot-kommunikatsion texnik vositalardan ta'lifni amalga oshirish jarayonida pedagogik qonuniyatlar asosida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida ta'lif jarayoniga turli innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish vazifikasi qo'yilgan. Shu sababli ta'lif tizimida, jumladan, boshlang'ich ta'lif jarayonida raqamli texnologiyalarga asoslangan o'qitishni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Chunki raqamli texnologiyalarga asoslangan o'qitish jarayoni ta'lif oluvchilarni faollashtiradi va ularning mustaqil faoliyat ko'nikmasini tarkib toptiradi. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni raqamli texnologiyaning mustaqil ta'lif shakli tahliliga tortamiz.

Mustaqil ta'lif mazmuni. Mustaqil ta'lif shakli ta'lif oluvchilarga erkinlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Shu sababli mustaqil ta'lif uchun o'quv materiallari alohida tayyorlanib, ularda asosiy e'tibor nazariy va amaliy ma'lumotlarni berishga qaratiladi. Mustaqil ta'lif olish uchun ta'lif oluvchi muayyan tayyorgarlikka

ega bo‘lishi kerak. Shu sababli mustaqil ta’lim oluvchi vaqt rejimi, maqsadli dastur va mustaqil ta’lim beruvchi bilan munosabatlar rejasiga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida mustaqil ta’lim imkoniyatlardan keng foydalanishga ahamiyat berilmoxda. Misol uchun, oliy pedagogik ta’lim muassasalarining har bir o‘quv fanida mustaqil ta’lim uchun mavzular va topshiriqlar bo‘limi mavjud.

Mustaqil ta’lim pedagogika tarixida juda qadimgi an’analarga ega. Shu sababli mustaqil ta’lining imkoniyatlari va xususiyatlarini idrok etish taqozo etiladi. Shunisi muhimki, mustaqil ta’lim jarayoniga ta’lim oluvchining fikri, dunyoqarashi va ta’limga munosabati mustaqil ravishda rivojlanib boradi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda mustaqil ta’lim imkoniyatlardan keng foydalanilmoqda. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi oliy pedagogik ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim jarayoni yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda talabalar tanlash huquqiga ega. Shu jihatdan mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida ta’limning mustaqil ta’lim shakli imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustaqil ta’limni tashkil qilish asoslari. Mustaqil ta’limni tashkil qilish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- 1) muayyan fan bo‘yicha mustaqil ta’lim dasturi ishlab chiqiladi va unda fanning eng muhim asoslari qamrab olinadi;
- 2) muayyan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil ta’lim kurslari tashkil qilinadi va bunday kurslar o‘quv yili davomida chuqurlashtirilgan bilim berishni amalga oshiradi;
- 3) oliy pedagogik ta’lim muassasasining imkoniyatlardan kelib chiqib muayyan ixtisoslik bo‘yicha mustaqil ta’lim tashkil etiladi va bu bilan ta’lim oluvchilarning ehtiyojlari qoniqtiradi;
- 4) muayyan professor-o‘qituvchining mustaqil ta’lim kursi tashkil etiladi va unda ta’lim beruvchining tajribasi o‘zlashtiriladi.

E’tibor berilsa, mustaqil ta’limni tashkil etish oliy pedagogik ta’lim muassasasi yoki jamoasining tashabbusiga asoslanadi. Mustaqil ta’lim vositasida ta’lim oluvchilarni kasbga tayyorlashning amaliy imkoniyatlari mavjudligini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv fanlari mustaqil ta’lim bo‘limini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbek Pedagogikasi tarixida mustaqil ta’lim qadimiy ildizlarga ega. Misol uchun, o‘rta asrlarda asosan mustaqil ta’lim shakli amalda bo‘lgan. Unga ko‘ra, ta’lim oluvchi mahoratli ta’lim beruvchi ishtirokida va uning ko‘rsatmalari asosida o‘zi qiziqqan fan asoslarini yoki hunarni o‘zlashtirga. Buning natijasida keyinchalik mustaqil ta’limning shakli bo‘lgan individual ta’lim jarayoni yuzaga kelgan. Shu sababli Pedagogika fanimiz tarixidagi mustaqil ta’lim shakllarini, uning asoslarini va samaradorlik ko‘rsatkichlari mexanizmlarini o‘rganish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu bilan raqamli texnologiya sharoitida uning mustaqil ta’lim shakli bo‘yicha kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

Xorijiy mamlakatlar ta’lim muassasalarida eng zamonaviy ixtisosliklar bo‘yicha mustaqil ta’lim shakli yo‘lga qo‘yliganligini eslatib o‘tish joiz. Buning natijasida jahon mamlakatlarining ta’lim oluvchilari o‘zi istagan mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim shaklida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu sababli raqamli texnologiyaning mustaqil ta’lim shakli istiqbolli hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda o‘quv fanlari bo‘yicha mustaqil ta’lim dasturlari majmuuni ishlab chiqish va ularning didaktik ta’minotini yaratish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish lozim.

Mustaqil ta’lim imkoniyatlari. Raqamli texnologiyaning mustaqil ta’lim shakli ta’lim oluvchilarga keng imkoniyatlarni beradi. Bunday imkoniyatlarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- 1) ta’lim oluvchilarning mustaqil harakat va fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptiradi;
- 2) muayyan fan mavzulari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni chuqurlashtiradi;
- 3) fanlarning asoslari bo‘yicha qo‘sishimcha ma’lumotlar yoki materiallarni berish imkoniyatini beradi;
- 4) ta’lim oluvchilarning manfaatlari va ehtiyojlarini ro‘yobga chiqaradi.

Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida mustaqil ta’limning imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) o‘quv fanlarining mustaqil ta’lim bo‘limini o‘zlashtirish jarayonini qat’iy nazorat qilish;

- 2) “Mustaqil ta’lim asoslari” maxsus kursini tashkil qilish;
- 3) o‘quvchilar bilan mustaqil ta’lim imkoniyatlaridan foydalangan holda ishlash metodikasini ishlab chiqish;
- 4) har bir professor-o‘qituvchining mustaqil ta’lim kurslarini tashkil etish.

Bunday yondashuv ta’lim oluvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini maqsadli tarkib toptirish imkonini beradi.

Zero raqamli texnologiyaning mustaqil ta’lim shakli ta’lim oluvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash xususiyatlariga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi bilan qurollantirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’lim metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyadan foydalanishning shakllari amaliyotida 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Bu borada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy va metodik tayyorgarligini tarkib toptirish dolzarb bo‘lib turibdi.

3.3. Boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilashning amaliy ahamiyati

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevori sifatida ta’lim belgilangan. Shu jihatdan ta’lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biri boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limni tashkil qilish, o‘qitish jarayonini yangilash va o‘zlashtirishni baholash metodlari yangilanib bormoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilashning amaliy ahamiyatini idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi nazariyasini yangilash ahamiyati. Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatiga erishishning eng muhim omillaridan biri mazkur ta’lim metodikasi nazariyasini yangicha yondashuvlar asosida yangilab borishdir. Bunda yangilash tushunchasi nazariy tajribalarni ommalashtirish va unga yangi ehtiyojlarni hisobga olgan yangiliklarni qo‘sish ma’nosini anglatadi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim metodikasi nazariyasini yangilashda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) milliy pedagogik tajribaga asosan an'anaviy metodikani nazariy rivojlantirish;
- 2) xorijiy mamlakatlar tajribasiga asosan boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasini rivojlantirish;
- 3) tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikasi asosida mazkur ta'lim bosqichi metodikasini nazariy rivlojlantirish.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasini rivojlantirishda milliy pedagogik tajriba muhim o'rinni tutadi. Shu jihatdan bu borada quyidagi bosqichlarga tayanish kutilgan samarani berishini eslatib o'tish joiz:

- a) xalq pedagogikasidagi boshlang'ich ta'lim metodikasini o'rgishanish va o'zlashtirish;
- b) VIII-XIX asrlarda amalda bo'lган milliy pedagogika metodikasini o'rganish va o'zlashtirish;
- d) jadid pedagogikasi boshlang'ich ta'lim metodikasini o'rganish va o'zlashtirish;
- e) XX-XXI asrlarda amalda bo'lib kelayotgan boshlang'ich ta'lim metodikasi va uning muammolariga doir ilmiy tadqiqotlardagi tavsiyalarni o'rganish va o'zlashtirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Misol uchun, jadid pedagogikasi boshlang'ich ta'ltim metodikasi nazariyasida dunyoviy tamoyillarga asoslanish va hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqish tajribasi mavjud. Bu tajriba bugungi kunda yangicha nuqtai nazaridan tadqiq etilishi va boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasiga tadqiq etilishi muhim amaliy omillarni beradi. Bunda ayniqsa, Abdurauf Fitratning boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasiga oid dunyoviy tamoyillarini (ilmiylik, tushunuvchanlik, fikrlash, faoliyatga tayyorlik) va Mahmudxo'ja Behbudiyning hayotiy ehtiyojlar tamoyillarini (boshlang'ich ta'limda xorijiy tillar majmuuni keng o'qitish, o'quv fanlarining asoslari bo'yicha birladamchi ma'lumotlarni berish, o'quvchilarни keyingi faoliyatga tayyorlash) o'rganish va o'zlashtirish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli boshlang'ich ta'lim metodikasi nazariyasini yangilashga doir yangi avlod ilmiy-tadqiqotlar majmuuni yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda iqtidorli talabalarni "Talabalar

Akademiyasi” tuzilmasi vositasida tadqiqot ishlariga jalg etish va ularning tadqiqotlarini rag‘batlantirish yo‘lidan borish muhimdir. Chunki iqtidorli talabalar ko‘p hollarda yangicha g‘oyalar va fikrlar bilan qurollangan bo‘ladi. Shu jihatdan ularni boshlang‘ich ta’lim metodikasi nazariyasi muammolariga doir ilmiy-tadqiqot ishlariga jalg etish bugungi kun pedagogik tadqiqotchilikning muhim vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Bu bilan an’anaviy boshlang‘ich ta’lim metodikasi nazariyasini rivojlantirishning muhim amaliy omillariga ega bo‘linadi.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasini yangilash ahamiyati. Didaktika o‘qitish nazariyasi bilan shug‘ullangani holda, muntazam o‘qitishning yangi vositalari va metodlarini qabul qilib borishi kerak. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim didaktikasi ko‘p hollarda turg‘un holatda ejkanligini eslatib o‘tish joiz. Vaholangki, real sharoit ehtiyoji bilan o‘qitishning bir necha yangi turlari amaliyotga joriy etildi. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim didaktikasini yangilashda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) boshlang‘ich ta’lim o‘qitish jarayoniga tadbiq etilgan masofaviy ta’lim, mustaqil ta’lim va qo‘shma ta’lim turlarining didaktikasini o‘rganish va ularning yutuqlarini umumlashtirish;
- 2) boshlang‘ich ta’lim didaktikasidagi bo‘layotgan yangiliklarni o‘rganish va o‘zlashtirish;
- 3) boshlang‘ich ta’lim didaktikasiga doir amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirib borish;
- 4) tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual o‘qitish didaktikasini o‘rganish va ularning yutuqlarini mazkur ta’lim bosqichi didaktikasiga tadbiq etish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’lim didaktikasini hozirgi zamon talablari asosida nazariy rivojlantib borish imkonini beradi. Shu sababli bu borada yangi avlod tadqiqotlariga ehtiyojning yuqorililiginи alohida eslatib o‘tish lozim. Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’lim didaktikasi nazariyasi masalalari bilan asosan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlaydigan oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki umumiy o‘rtat a’lim maktablarining barchasi oliy pedagogik ta’lim muassasalariga biriktirilgan. Bu imkoniyat

boshlang‘ich ta’lim didaktikasida nazariya va amaliyot uyg‘unligini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab xorijiy mamlakatlarning tajribalariga asosan tayyorlangan yangi avlod darsliklari amaliyotga kiritilgan. Bu darsliklarning ham didaktik ta’mnoti va uning nazariy asoslarini tahlil qilish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasida har qanday xorijiy tajribaning milliy ta’lim ruhiga mos ravishda o‘zlashtirish belgilab qo‘yilgan va bunday yondashuv barcha xorijiy mamlakatlarda mavjud. Shu ma’noda boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan amaliy, tabiiy va gumanitar fanlarning yangi avlod darsliklari didaktikasi bo‘yicha nazariy va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Aks holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy ruhiyatiga mos bo‘lmagan o‘quv materiallari kutilgan samarani bermaydi.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim didaktikasiga oid muammolar ko‘pligi bilan xarakterlanadi. Bunda TIMSS, PISA, PIRLS va STEAM xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlarida muvaffaqiyatlari ishtiroy etish uchun boshlang‘ich ta’lim didaktikasining nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu xalqaro baholash ta’lim dasturlari muayyan qoidalarni o‘zida aks ettirgani holda milliy ta’lim dasturlariga moslashuvchan ekanligini hisobga olish lozim. Shu jihatdan bunday xalqaro baholash ta’lim dasturlari qoidalari va talablarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib olish boshlang‘ich ta’lim didaktikasining nazariyasi va metodikasida kutilgan samarani bermaydi. Demak, bu borada ham boshlang‘ich ta’lim didaktikasining xalqaro baholash ta’lim dasturlaridan foydalanish asoslarini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu ish ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlaydigan institutlar va universitetlarda amalga oshirilishi amaliy samarani berishini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini yangi metodika asosida tayyorlash ahamiyati. Mamlakatimizda tajribali va o‘ziga xos nazariy-metodik yondashuvlarga ega ko‘pgina boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyat yuritmoqda. Ularning individual metodikalarini o‘rganish vositasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini yangi metodika asosida tayyorlash muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasidan o'tkazilgan pedagogik ta'lim klasteri asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash (bunda ta'lim ishtirokchilarining keng qatnashishi amaliyotga joriy etilgan);

1) Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amaliyotga joriy etilgan o'qitishning 4+2 tizimi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning nazariy va metodik yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

2) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajribalarini o'zlashtirish maqsadida ularga pedagogik amaliyot o'tayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini biriktirish vositasida kelgusi o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish;

3) boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlarining o'qitish nazariyasi, didaktikasi va metodikasi asoslarini o'r ganib borish hamda ular uchun maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini yangi metodika asosida tayyorlash va kuchaytirish imkonini beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim metodikasini rivojlantirishda uning nazariy asoslarini yangilash, didaktikasini rivojlantirish va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini yangi metodikalarga asosan tayyorlash masalalari muhim o'r in tutadi. Buning uchun pedagogik ilmiy-tadqiqotchilik va amaliyotni uyg'un olib borish taqozo etiladi. Aks holda, boshlang'ich ta'lim metodikasini rivojlantirishda amaliy samaraga erishish qiyin kechishini eslatib o'tish lozim.

Kezi kelganlda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'lim metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish ham dolzarb bo'lib turibdi. Chunki raqamli texnologiyalarda asosiy e'tibor ta'lim jarayoniga qaratilishi sir emas. Boshlang'ich ta'lim metodikasida esa tarbiya masalasi ham muhim o'r in tutadi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tarbiyaviy asoslarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga egadir.

XULOSA

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida 2030 yilga qadar mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatiga erishish, unda o‘qitish metodikasini yangilash va o‘zlashtirish jarayonini kuchaytirish vazifalari qo‘yilgan. Shu sababli keyingi paytlarda boshlang‘ich ta’lim metodikasida yangilanish va takomillashish jarayoni kechmoqda. Bunda boshlang‘ich ta’lim muammolariga oid amalga oshirilayotgan ilmiy-metodik tadqiqotlarning ahamiyati katta bo‘layotganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4 K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi va boshlang‘ich ta’lim metodikasida bo‘layotgan yangilanishlar masalasini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar hamda amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar chuqur o‘zlashtirishi sifatlari boshlang‘ich ta’limga erishish imkonini beradi. Buning uchun quyidagilarga diqqat qilish muhimdir:

birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasini oliv pedagogik ta’lim jarayonida chuqur o‘zlashtirish va bu texnologiya bilan Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va ularni yangi metodikaga o‘rganitish milliy tadqiqot instituti vositasida amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qurollantirish;

ikkinchidan, boshlang‘ich ta’lim metodikasida bo‘layotgan yangilanishlar tizimi bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini chuqur tanishtirish va ularni 4+2 o‘qitish tizimi vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash;

uchinchidan, boshlang‘ich ta’lim metodikasini rivojlantirishning raqamli texnologiyalaridan foydalanish nazariyasi va metodikasini chuqur o‘zlashtirish;

to‘rtinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini milliy pedagogik va xorijiy mamlakatlar pedagogik tajribalari asosida yangi metodikaga asosan tayyorlash;

beshinchidan, boshlang‘ich ta’lim metodikasining nazariyasi, didiaktikasi, metodologiyasi va amaliyoti bo‘yicha yangi avlod nazariy-metodik tadqiqotlar majmuini yaratish.

Bunday yondashuv mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim metodikasini Yangi O‘zbekiston ehtiyojlari asosida rivojlanТИRIB borish va kasbiy yetuk yangi avlod boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash imkoniyatlarini beradi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabr-dagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.ziyonet.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur”. // www.ziyonet.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi. // www.ziyonet.uz
4. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiysi. // www.ziyonet.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent, 2022
6. Adizov O. Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning asosiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2011
7. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006
8. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. Sankt-Peterburg, 2001
9. Djo‘rayev R., Turg‘unov S. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T.: “Fan”. 2001
10. Ernazarova G.O. Chudakova V.P., Yakubova M.Y., Oblaqulov Sh.D. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent, 2023
11. Ernazarova G.O., Isroilov Q.T., Qurbonova M.E. Pedagogik kompetentlik. – Chirchiq-2023
12. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009
13. Jabborova O., Ochilov F. Bolalar pedagogikasi. – Toshkent, 2021
14. Jabborova O., Tashpulatova D. ART texnologiya va kreativlik. – Chirchiq, 2023
15. Jumanova F va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. – Toshkent, 2021
16. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – Toshkent, 2012
17. Zununov A., Mahkamov U. Didaktika. – Toshkent, 2006
18. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada

innovation texnologiyalar. – Toshkent. 2010

19. Karimjonov A., Ochilov F. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya muammolari. – Toshkent, 2021
20. Komenskiya A.Ya. Buyuk didaktika. – Toshkent. 1972
21. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021
22. Mardonov Sh.Q., Xodjayev B., Taylanova Sh., Xojimuhamedova D. Pedagogik aksiologya. – Toshkent, 2023
23. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didak ta’mintoni ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021
24. Matupayeva Sh.Z. Boshlang‘ich ta’limda Clil texnologiyasi. – Toshkent, 2023
25. Musurmonova O., Isakulova N., Jumaniyozova M., Jumayev A. Umumi pedagogika. – Toshkent, 2020
26. Muxamedov G., Xodjamqulov U., Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri. – Chirchiq, 2018
27. Nosirov A. Ta’lim mazmuniga qartilgan o‘zgarishlar. // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2023 yil, 13 iyul soni.
28. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2000
29. Pulatova D.T. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo’llash. – Toshkent, 2018
30. Raxmonova M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent, 2012
31. Sanaqulov X., Jumayev M. Umumi o‘rtta ta’lim maktablarida boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish texnologiyasi. – Toshkent, 2023
32. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo’llash namunalari. – Toshkent. 2000
33. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2000
34. Samarova Sh.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fikrlash jarayonlarining diagnostikasi. – Toshkent, 2021
35. Tojiboyeva G.R. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. – Chirchiq, 2023
36. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning

tadbiqiy asoslari. – Toshkent. 2006

37. Toxtaxodjayeva M.X. va boshq. Pedagogika. – Toshkent. 2010
38. Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. – Toshkent, 1959
39. Ziyomuhamedov B. Ilg‘or pedagogik texnologii: nazariya va amaliyot. –Toshkent. 2001
40. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – Toshkent. 2012
41. Tabiiy fanlar. 1-4 sinflar uchun darslik. – Toshkent, 2023
42. Xamzayev X. Raqamli texnologiya mazmuni. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Jizzax, 2020.
43. Xodjayev B.X. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashini shakllantirish yo‘llari. – Toshkent. 2008
44. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent. 2017
45. Xudoyqulov X.J., Jumanova F.U. Kasbiy pedagogika. – Toshkent, 2021
46. Xurvaliyeva T.L. Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik. – Toshkent-2023
47. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent. 2004
48. O‘sarov J.E., Babaxodjayeva L.G., Sharipova G.N., Eshnayev N.J. Pedagogik kompetentlik. – Chirchiq-2021
49. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent, 2007

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.tdpu.uz
5. www.cspi.uz

LUG‘AT

Boshlang‘ich ta’lim metodikasida yangilanishlar – O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limning metodikasi 2017 yildan boshlab muntaзам yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunda boshlang‘ich ta’limning sifat ko‘rsatkichlariga erishish, boshlang‘ich ta’lim vazifalarida o‘quvchilarni ta’limning keyingi bosqichi va turlariga tayyorlash, boshlang‘ich ta’limga bo‘lgan jamiyatning yangi ehtiyojlari asos bo‘lmoqda. Shu sababli boshlang‘ich ta’limning an’anaviy metodikasi bilan bir qatorda masofaviy va aralash ta’lim metodikasi ham o‘qitish jarayonida faol tadbiq etila boshlandi. Bu hol boshlang‘ich ta’lim metodikasida bo‘layotgan yangilanishlarni ilmiy va mektodik jihatdan o‘rganib borishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasidagi yangi texnologiyalar – mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim bosqichining rivojlantirilishi jarayonida mazkur ta’lim bosqichida yangi texnologiyalarga asoslanish an’anasi tarkib topdi. Bunday yangi texnologiyalarning eng muhimlarini halqaro ta’lim dasturlari va qoidalarini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tadbiq etish, raqamli, masofaviy va elektron-resursli texnologiyalar tashkil qiladi.

Boshlang‘ich ta’limning yangi avlod o‘quv adabiyotlari – mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida xalqaro ta’lim dasturlari va xorijiy mamlakatlarning tajribalari asosida ishlab chiqilgan yangi avlod o‘quv adabiyotlari 2023-2024 o‘quv yildan boshlab amaliyotga kiritildi. Bu yangi avlod o‘quv adabiyotlarining negizini fanlarni aniq, tabiiy va gumanitar turkumlarga bo‘lib o‘qitish hamda o‘quvchilarning ko‘nikmalarini amaliyot va nazariya uyg‘unligi asosida tarkib toptirish tashkil qiladi.

Kembrij kollejining 4K moduli bo‘yicha ko‘nikmalar tizimi – Angliyaning Kembrij kolleji pedagog olimlari tomonidan XX asr 90-yillarida o‘quvchilarning 4K moduli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim asosini ta’lim oluvchilarning kommunikatsiya, kollabaratsiya, kreativlik va kritisizm ko‘nikmalarini shakllantirish tashkil qiladi. Mazkur tizim tez orada dunyo mamlakatlari ta’lim tizimida qabul qilindi. O‘zbekistonda mazkur ko‘nikmalar asosida yangi o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va ularni o‘quvchilarda shakllantirish ishi O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2021 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi Farmoni bilan belgilandi.

Kommunikatsiya ko‘nikmasi – Angliyaning Kembrij kollejida ishlab chiqilgan 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarning dastlabkisidir. Mazkur ko‘nikmaga ko‘ra, ta’lim oluvchilar, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim muassasalaridagi mavjud ta’lim sharoitlari va muhitidan oqilona foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularni sinf, maktab va mакtabdan tashqari ta’lim muhiti hamda sharoitlaridan oqilona foydalanishga o‘rgatish ishi amalga oshiriladi.

Kollabaratsiya ko‘nikmasi – 4K modeli bo‘yicha kollabaratsiya ko‘nikmasi ta’lim oluvchilarda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kollabaratsiya, ya’ni jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularni bilim olish jarayonida, uy vazifalari va topshiriqlarini bajarishda birgalikda ishlashga o‘rgatish muhim o‘rin tutadi.

Kreativlik ko‘nikmasi – 4K modeli bo‘yicha kreativlik ko‘nikmasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, ta’lim oluvchilarda ijodiy yondashuv ko‘nikmasi tarkib toptirilishi kerak. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik, ya’ni ijodiy yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularning layoqatini aniqlash, ijodiy rivojlanishini yo‘lga qo‘yish va mazkur jarayonning samaradorligini kuzatib borish muhim o‘rin tutadi.

Kritisizm ko‘nikmasi – 4K modeli bo‘yicha kritisizm ko‘nikmasi ta’lim oluvchilarda tarkib toptirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra, ta’lim oluvchilar tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini o‘zlashtirishi lozim. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kritisizm, ya’ni tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun ularni bilim olish, ma’lumotlarni tahliliy asosda qabul qilish va o‘quv adabiyotlariga nisbatan mustaqil yondashuvlarga o‘rgatish muhim o‘rin tutadi.

Kollektiv faoliyat – 4K modeli bo‘yicha ta’lim oluvchilar, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini shakllantirishda kollektiv, ya’ni jamoaviy faoliyat muhim o‘rin

tutadi. Bunday faoliyatda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish, boshlang‘ich sinf rahbarlari bu ishni tashkil qilish va muvofiqlashtirish, maktab jamoasi mazkur ishda sharoit yaratib berish va ota-onalar bu ishda jamoatchilik vazifalarini bajarish bilan ishtirok etadi. Shu sababli 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarni o‘quvchilarida tarkib toptirish innovation yondashuvlardan biri sifatida qabul qilinadi.

Tarbiyalanganlik mezonlari – 4K modeli bo‘yicha ta’lim oluvchilar, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini shakllantirishda asosan ta’lim sharoitidan oqilona foydalanish, ijodiy yondashish va tanqidiy fikrlashga ularni o‘rgatishga asosiy e’tibor qaratiladi. Shu ma’noda mazkur modelning kollabaratsiya, ya’ni jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasi negizini tarbiya tashkil etishini eslatib o‘tish joiz. Jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasi va uning mezonlari aniqlanadi. Bunday baholashda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida indiviudallik va jamoaviylik sifatlarining uyg‘un tarkib topganligi tarbiyalanganlik darajasining ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

Ta’lim va tarbiya amaliyoti uyg‘unligi – 4K modeli bo‘yicha ta’lim oluvchilarning, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini shakllantirishda ta’lim va tarbiya amaliyoti uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. Bunda turli tadbirlar va o‘rganishlar vositasida ta’lim va tarbiyaning uyg‘unlik ko‘rsatkichlari o‘rganib boriladi. Shu ma’noda Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ta’sis etilgan “Maktab-laboratoriya” tajriba-sinov maydonchasining “Innovatsion boshlang‘ich maktab” loyihasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya, kollabaratsiya, kreativlik va kritisizm ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini o‘rganish hamda baholash muhim namunaviy mexanizmlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Onaxon Jabborova

**BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARINING 4 K MODELI
BO'YICHA KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI VA
BOSHLANG'ICH TA'LIM
METODIKASIDA YANGILANISHLAR**

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo'ziyeva

Musaxhish: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 21.06.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozni.

"Times New Roman" garniturasini.

Xisob-nashr tabogi. 6,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 2265223.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Nashriyot tel. raqami +998 (94) 673-66-56